

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/10.12.2019.I.16.01 RAQAMLI  
ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITET I**

**YAKUBOVA SHAMSHINUR SHUXRATOVNA**

**O‘ZBEKISTONDA RAQAMLI MOLIYAVIY AKTIVLARNI JORIY  
ETISHNING NAZARIY VA METODOLOGIK ASOSLARINI  
TAKOMILLASHTIRISH**

**08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit**

**Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата докторской (DSc) диссертации**

**Content of the Doctoral (DSc) Dissertation Abstract**

**Yakubova Shamshinur Shuxratovna**

O‘zbekistonda raqamli moliyaviy aktivlarni joriy etishning nazariy va metodologik asoslarini takomillashtirish..... 3

**Якубова Шамшинур Шухратовна**

Совершенствование теоретических и методологических основ внедрения цифровых финансовых активов в Узбекистане..... 41

**Yakubova Shamshinur Shukhratovna**

Improving the theoretical and methodological foundations for the implementation of digital financial assets in Uzbekistan..... 81

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ  
List of published works..... 87

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/10.12.2019.I.16.01 RAQAMLI  
ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

**YAKUBOVA SHAMSHINUR SHUXRATOVNA**

**O‘ZBEKISTONDA RAQAMLI MOLIYAVIY AKTIVLARNI JORIY  
ETISHNING NAZARIY VA METODOLOGIK ASOSLARINI  
TAKOMILLASHTIRISH**

**08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit**

**Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2.DSc/Iqt710 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezюме)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.tsue.uz) va «Ziyonet» axborot-ta'lim portali (www.ziyonet.uz)da joylashtirilgan.

**Ilmiy maslahatchi:**

**Gulyamov Saidaxror Saidaxmedovich**  
O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi,  
akademik, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Ismailov Alisher Agzamovich**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Jumayev Nodir Xosiyatovich**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Duskobilov Umidjon Sharofiddinovich**  
iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**“Poytaxt Bank” AJ**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/10.12.2019.1.16.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil “17” 06 soat 10<sup>00</sup> da majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100003, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel.: (99871) 239-28-72, faks: (99871) 239-43-51, e-mail: tdiu@tdiu.uz.

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1687 - raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100003, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel.: (99871) 239-28-72, faks: (99871) 239-43-51, e-mail: tdiu@tdiu.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “19” 05 kuni tarqatildi.  
(2025-yil «19» 05 daqi No 77 raqamli revestr bayonnomasi).



**S.U. Mexmonov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash  
raisi, i.f.d., professor

**U.V. Gafurov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash  
ketibi, i.f.d., professor

**S.K. Xudoyqulov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash  
qoshidagi Ilmiy seminar raisi, i.f.d.,  
professor

## KIRISH (Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda taqsimlangan reyestr texnologiyasining (Distributed ledger technology) paydo bo'lishi va jadal rivojlanishi axborot texnologiyalari evolyusiyasidagi muhim bosqich sifatida namoyon bo'lmoqda. Taqsimlangan reyestr texnologiyasining moliya tizimiga integratsiyalashuvi natijasida kliring jarayonlari va to'lov tizimlarini takomillashtirishga erishilmoqda. So'nggi yillarda raqamli aktivlar bozorida sezilarli o'sish kuzatildi: Statista ma'lumotlariga ko'ra, "kriptoalyuta bozorining kapitallashuvi 2024-yilda 2,3 trillion AQSH dollaridan, dunyo bo'ylab kriptoalyutadan foydalanuvchilar soni esa 560 milliondan oshdi"<sup>1</sup>, raqamli aktivlarni global qabul qilish tendensiyasini hisobga olgan holda, bu ko'rsatkichning 2030-yilga kelib 1 milliardga yetishi kutilmoqda. 2021-yilda blokcheyn va kriptoalyuta startaplariga venchur kapital qo'yilmalari rekord darajadagi 25,2 milliard AQSH dollariga yetdi, 2024-yilda bu raqam 13,7 milliard AQSH dollarini tashkil etdi, bu esa raqamli moliyaviy aktivlarning investitsiya va moliyalashtirishning innovatsion vositasi sifatida ularga qiziqishning ortishidan dalolat beradi. Ayniqsa, raqamli aktivlar bozori hajmining so'nggi yilda shiddatli tarzda oshib borayotganligi mazkur sohaning har bir mamlakatning moliyaviy va bank tizimiga sezilarli ta'sir ko'rsatuvchi omili sifatida namoyon etadi. Masalan, "kriptoalyutalarning umumiy kapitallashuvi 2025-yil 23-may holatiga ko'ra 3,37 trillion AQSh dollariga teng"<sup>2</sup> bo'lib, dunyodagi eng qimmat kompaniyalardan biri bo'lgan Apple Inc ning umumiy kapitallashuvi hajmidan (2,92 trillion AQSH dollari)<sup>3</sup> ham yuqoridir.

Jahonda raqamli moliyaviy aktivlarni joriy etishning nazariy va metodologik asoslarini tadqiq etishga qaratilgan keng qamrovli ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Raqamli moliyaviy aktivlar konsepsiyasining nazariy asoslarini takomillashtirish, raqamli moliyaviy infratuzilmani rivojlantirishning yangi trendlarini aniqlash, qonuniylik, xavfsizlik va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish mexanizmlarini shakllantirish, raqamli aktivlarning pul-kredit siyosatlariga ta'siri, raqamli aktivlardan foydalanish istiqbollari, qimmatli qog'ozlar va kripto-aktivlar bozorlaridagi volatillikni kamaytirish strategiyalarini ishlab chiqish, raqamli aktivlar bo'yicha standartlar va tartibga solish choralari uyq'unlashtirish bu borada amalga oshirilayotgan tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlari hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi uchun raqamli moliyaviy aktivlarni joriy etishni tadqiq etishning dolzarbligi ularning bank va moliya sohasidagi mavjud muammolari, xususan, moliyaviy qamrovni kengaytirish, yuqori tranzaksiya xarajatlarini pasaytirish, xufyona iqtisodiyotga qarshi kurashish, tadbirkorlik subyektlarining moliyalashtirish manbalariga chiqish imkoniyatlarini kengaytirish, shuningdek, moliya infratuzilmasini modernizatsiya qilish va kapital bozorini rivojlantirish masalalarini hal etishdagi salohiyati bilan belgilanadi. Markaziy bank

<sup>1</sup> <https://www.henleyglobal.com/>, <https://www.triple-a.io/cryptocurrency-ownership-data> saytlari ma'lumotlari

<sup>2</sup> <https://www.tradingview.com/markets/cryptocurrencies/global-charts/>

<sup>3</sup> <https://www.tradingview.com/symbols/NASDAQ-AAPL/financials-overview/>

raqamli valyutalari hamda taqsimlangan reyestr texnologiyalariga asoslangan tokenlashtirilgan aktivlarni o‘z ichiga olgan raqamli moliyaviy aktivlar moliyaviy xizmatlar inklyuzivligini oshirish, operatsiyalar shaffofligini oshirish hamda investitsiyalarni jalb qilish uchun innovatsion vositalarni yaratish mexanizmlarini taqdim etadi. Biroq bunday afzalliklarni maksimal darajada ro‘yobga chiqarish va ayni paytda kibexavfsizlik, moliyaviy barqarorlik, iste‘molchilar huquqlarini himoya qilish hamda noqonuniy foydalanish bilan bog‘liq risklarni minimallashtirish uchun chuqur va har tomonlama tadqiqotlar o‘tkazish zarur. Milliy normativ-huquqiy bazani ishlab chiqish va takomillashtirish, raqamli texnologiyalarni rivojlantirish, ehtimoliy ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarni prognozlash hamda mamlakat iqtisodiyotiga raqamli moliyaviy aktivlarning xavfsiz va samarali integratsiyalashuviga yo‘naltirilgan, asoslantirilgan davlat siyosatini shakllantirishda mazkur ilmiy tadqiqot muhim hisoblanadi. Shu bilan birga, raqamli moliyaviy aktivlarni joriy etishning xavfsizlik va huquqiy maqomi masalalari, ularni joriy etish bo‘yicha yetarli xorij tajribalarining to‘laqonli shakllanmaganligi, raqamli moliyaviy aktivlar va raqamli valyutalarni emissiya qilish hamda ulardan samarali foydalanish bo‘yicha muammolar mavjudligi va ularning ilmiy-metodologik jihatdan o‘rganilmaganligi mazkur tadqiqot ishining dolzarbligini yanada oshiradi.

Mazkur dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi, 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son ““Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2020-yil 2-martdagi PF-5953-son “2017 – 2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Ilm, ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi, 2018-yil 19-fevraldagi PF-5349-son “Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonlari, 2018-yil 2-sentabrdagi PQ-3926-son “O‘zbekiston Respublikasida kripto-birjalar faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2018-yil 3-iyuldagi PQ-3832-son “O‘zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni va kripto-aktivlar aylanmasi sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2018-yil 21-noyabrdagi PQ-4022-son “Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish maqsadida raqamli infratuzilmani yanada modernizatsiya qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2017-yil 12-sentabrdagi PQ-3270-son “Respublika bank tizimini yanada rivojlantirish va barqarorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari va boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublikada fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublikada fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma’naviy-axloqiy hamda

madaniy-ma'rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish"« ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi**<sup>4</sup>. Raqamli aktivlarni joriy etish metodologiyasi va amaliyotini tartibga solish va takomillashtirish masalalariga bag'ishlangan tadqiqotlar bilan dunyoning yetakchi tashkilotlari, davlat nazorat organlari va tadqiqot markazlari hamda oliy ta'lim muassasalari, jumladan: Bank for International Settings (BIS), World Bank, International Monetary Fund, European Commission, Financial Stability Board, Garvard universiteti (Harvard University, AQSH), Bonn universiteti (University of Bonn, Germaniya), Sorbonna universiteti (University of Paris Sorbonne, Fransiya), Oksford universiteti (Oxford University, Buyuk Britaniya), Harvard Kennedy School (AQSH), Skolkovo boshqaruv maktabi (Школа управления Сколково, Россия), Sveriges Riksbank, Bank of Canada, Bank of Thailand, Bank of England, the Reserve Bank of Australia (Avstraliya zaxira banki), Rossiya banki (Банк России), the Monetary Authority of Singapore and the South African Reserve Bank (Singapur valyuta boshqarmasi va Janubiy Afrika zaxira banki), BIS Innovatsion markazi, Deloitte, Ernst & Young (EY), Klynveld Peat Marwick Goerdeler (KPMG), McKinsey & Company, (Germaniya), DePaul University, University of Minnesota (AQSH), Griffith University (Avstraliya), Jiangnan University, Lund University (Shvetsiya), University of Hong Kong (Gonkong), Nottingham Trent University, Universiti Sains Malaysia (Malayziya), O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti (O'zbekiston) shug'ullanadi.

---

<sup>4</sup> Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi <https://www.sciencedirect.com>, <https://www.imf.org>, <https://www.worldbank.org>, <https://www.federalreserve.gov>, <https://www.bis.org>; <https://www.sdsu.edu/>; <https://ufu.br/>; <https://www.un.org/>; <https://www.depaul.edu/>; [ecb.europa.eu](https://ecb.europa.eu), <https://www.bankofcanada.ca>, <https://www.harvard.edu>, <https://www.mit.edu>, <https://www.stanford.edu>, <https://www.universityofcalifornia.edu>, <https://home.kpmg/>; <https://www2.deloitte.com/>; <https://www.pwc.com/>; <https://www.uni-goettingen.de/>; <https://www.uni-augsburg.de/>; <https://www.mckinsey.com/>; <https://www.ulaval.ca/>; <http://www.bankofamerica.com/>; <https://bfa.uz/>; <http://tsue.uz/>; <https://www.cbr.ru>, <https://www.iep.ru>, <https://www.hse.ru>, <https://www.cer.uz>, <https://www.cbu.uz> va boshqa manbalar asosida tayyorlangan.

Anneke Kosse, Ilaria Mattei. Making headway – Results of the 2022 BIS survey on central bank digital currencies and crypto BIS Papers No 136, July 2023; Finance, Competitiveness, and Innovation Global Practice, World Bank, Financial Institutions Group, International Finance Corporation. What Does Digital Money Mean for Emerging Market and Developing Economies? Fintech and the Future of Finance Flagship Technical Note. 2022 International Bank for Reconstruction and Development / The World Bank; John Kiff et al. A Survey of Research on Retail Central Bank Digital Currency. IMF Working Paper WP/20/104. 2020 International Monetary Fund; Fonseca, Gisela. An analysis of the legal impact of central bank digital currency on the European payments landscape, 2020.; Financial Stability Board (FSB) (2020a). Addressing the Regulatory, Supervisory and Oversight Challenges Raised by "Global Stablecoin" Arrangements. Consultative Document. 14 April. <https://www.fsb.org/wp-content/uploads/P140420-1.pdf>; Е.Кривошея, Е.Семерикова. Цифровые валюты центральных банков: типология, дизайн и российская специфика. Центр исследования финансовых технологий и цифровой экономики Сколково-РЭШ, 2020.; The Riksbank's e-krona project Report 1 September 2017.; Davoodalhosseini, Mohammad, Francisco Rivadeneyra, and Yu Zhu. CBDC and Monetary Policy. No. 2020-4. Bank of Canada, 2020.; Bank of Thailand. INTHANON Phase II. Enhancing Bond Lifecycle Functionalities & Programmable Compliance Using Distributed Ledger Technology, 2019.; Barrdear, John, Michael Kumhof. The macroeconomics of central bank issued digital currencies, 2016.; А. Киселев. Есть ли будущее у цифровых валют центральных банков, Банк России, 2019.; Bank of England. Central Bank Digital Currency: opportunities, challenges and design, 2020.; Bank of Canada, Bank of England, Monetary Authority of Singapore. Cross-border interbank payments and settlements: Emerging opportunities for digital transformation, 2018.; <https://oxforddigitalassets.org/>; <https://dci.mit.edu/papers>; <https://www.hks.harvard.edu/centers/mrcbg/programs/digital-assets-policy>; <https://fdc.stanford.edu/>.

Raqamli aktivlarni tartibga solish va metodologiyasini takomillashtirish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar asosida bir qator ilmiy va amaliy natijalarga erishilgan, jumladan: ma'lum turdagi raqamli aktivlar, xususan, kriptovalyutalar va dastlab taklif qilinuvchi tangalar (ICO) qimmatli qog'ozlar turkumiga kiritilgan va qimmatli qog'ozlar bo'yicha mavjud qonunchilikka bo'ysundirilgan, shu bilan birga, mazkur aktivlarning emitentlari qimmatli qog'ozlarni ro'yxatdan o'tkazish va tegishli axborotni taqdim yeish talabi o'rnatilgan (Qimmatli qog'ozlar va birjalar bo'yicha komissiya - Security and exchange commission SEC); markaziy bankning raqamli valyutasi (MBRV) tijorat banklarining raqamli depozitlari va boshqa tokenlashtirilgan aktivlari bilan yagona reyestrda integratsiyalashtirilgan, markaziy bank valyutalari esa mavjud tizimdagi zaxiralar bilan bir xil ahamiyatga ega (Bank for International Settings); kripto-aktivlar yangi sinfining yuzaga kelishi munosabati bilan ularni tartibga solish, nazorat qilish va nazorat qilish muammolarining tanqidiy tahlili taqdim etilgan (Financial Stability Board); milliy xususiyatlardan va yuqorida qayd etilgan moslashuvchanlik zaruratidan qat'iy nazar, markaziy banklar raqamli valyutalarini chiqarishga qaror qilishda rioya qilinishi kerak bo'lgan uchta asosiy tamoyil ishlab chiqilgan (Kanada banki, Yevropa Markaziy banki, Yaponiya banki, Shvesiya Markaziy banki, Shveysariya Milliy banki, Angliya banki, Federal zaxira tizimi va BIS); MBRVning boshqa steyblkoynlar va kriptovalyutalardan farqli bo'lgan uchta xususiyatlari aniqlangan: narxlarni barqarorlashtirish mexanizmi mavjudligi; to'lov vositasi yoki qiymatni saqlash vositasi sifatida foydalanish imkoniyati (bu ikki belgi MBRVni bitkoyn singari dastlabki kriptovalyutalardan ajratib turadi); bir nechta yurisdiksiyalarda muomalada keng aylanish imkoniyati (bu xususiyat MBRVni boshqa steyblkoynlardan ajratib turadi) (Financial Stability Board).

Dunyoning yetakchi oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari, shuningdek, nufuzli xalqaro tashkilotlar tomonidan raqamli moliyaviy aktivlar hamda raqamli valyutalarni joriy etishning nazariy-metodologik asoslarini takomillashtirish bo'yicha quyidagi yo'nalishlarda ilmiy-amaliy natijalar olingan, jumladan: raqamli aktivlarning moliyaviy barqarorlikka, moliyaviy bozor samaradorligiga, raqobatga, iste'molchilar farovonligi va moliyaviy xizmatlardan foydalanishga potensial ta'siri o'rganildi (Harvard Kennedy School, USA); token tizimlari an'anaviy moliyaviy aktivlardan tashqari yangi bozorlarni yaratish potensialiga egaligi aniqlandi (Harvard Kennedy School, USA); raqamli aktivlar kontekstida ma'lumotlarni monetizatsiya qilish uchun yangi imkoniyatlarni topishda ma'lumotlar likvidligi muhimligi aniqlandi (Massachusetts Institute of Technology, USA); raqamli tranzaksiyalar infratuzilmasini qo'llab-quvvatlash va potensial beqarorlikni yumshatish uchun risksiz hisob-kitob aktivi sifatida wCBDC zarurati asoslangan (University of Cambridge, Cambridge Judge Business School, UK); institutsional investorlar daromadlarni oshirish va xarajatlarni kamaytirish uchun tokenlashtirilgan aktivlar va raqamli infratuzilmada katta daromad olishi aniqlandi (University of Oxford, UK); daromadi past va o'rta darajada bo'lgan to'rtta mamlakat (Hindiston, Indoneziya, Nigeriya, Meksika) uchun o'tkazilgan tadqiqotda

moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatini kengaytirish va inklyuzivlik darajasini oshirish chakana MBRVning dizayniga uzviy bog‘liqligi aniqlandi (The Massachusetts Institute of Technology, USA).

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Raqamli aktivlarni rivojlantirishning nazariy va metodologik jihatlari, ularning iqtisodiy mohiyati va tasniflanish masalalari, kriptovalyutalar va kripto-aktivlar muomalasini tartibga solish muammolari, markaziy banklar raqamli valyutalarini emissiya qilish, ularning monetar va to‘lov sohasiga ta‘sirini tadqiq qilish masalalari bir qator xorijlik iqtisodchi olimlar, jumladan, Allen, Rauchs, Blandin, Bear, Bindseil, Sandner, Olsen, Jepkemei, Hasan, Gonzálvez-Gallego, Pérez-Cárceles, Yadav, Brummer, A.Kiselev, Ye.I.Dyudikova, D.A.Kochergin, S.A.Andryushin, K.A.Koshelev, O.V.Loseva, N.A.Lazareva, V.V.Polyakova, P.A.Patrikeyev, A.V.Tebekin, O.V.Sidorova va boshqalarning ilmiy ishlarida tadqiq qilingan<sup>5</sup>.

O‘zbekistonlik iqtisodchi olimlardan S.S.Gulyamov, N.X.Jumayev, Sh.Z.Abdullayeva, E.A.Xoshimov, A.A.Ismailov, Z.N.Kurbanov, Z.T.Mamadiyarov, F.I.Isayev, U.Sh.Duskobilov, M.T.Kurbonbekova, R.Sh.Salayev, A.A.Azlarova va boshqalarning ilmiy ishlarida respublikamizda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish, kriptovalyutalar, blokcheyn, monetar siyosat, valyuta siyosatini takomillashtirishda raqamli valyutalarning joriy etilishi, raqamli moliyaviy aktivlar, kriptovalyutalarni hisobga olish va soliqqa tortish, bank va moliya tizimida raqamli moliyaviy texnologiyalarning tatbiq etilishi, raqamli transformatsiya jarayonida bank xizmatlarini masofadan ko‘rsatishning metodologik asoslari, tijorat banklarida raqamli aktivlar muomalasini

---

<sup>5</sup> Allen, J. G., Rauchs, M., Blandin, A. and Bear, K. (2020) Legal and Regulatory Considerations for Digital Assets. *Cambridge: Cambridge Centre for Alternative Finance*; University of Cambridge Press. P.13; Bindseil U. Central bank digital currency - financial system implications and control 30 July 2019. - 39 p. URL: <https://ssrn.com/abstract=3385283>; Philipp Sandner. Digital Assets: The Future Of Capital Markets. *Forbes* Aug 24. 2021. URL: <https://www.forbes.com/sites/philippsandner/2021/08/24/digital-assets-the-future-of-capital-markets/?sh=3960e7716a57>; Thomas Olsen, John Fildes, Karl Gridl For Digital Assets, Private Markets Offer the Greatest Opportunities. Bain&company. December 16. 2020. URL: <https://www.bain.com/insights/for-digital-assets-private-markets-offer-the-greatest-opportunities>; B. Jepkemei, A. Kipkebut Blockchain – A Disruptive Technology in Financial Assets. *IRE Journals*. 2019. Vol. 2. Is. 9.; Haya R. Hasan, Khaled Salah. Proof of Delivery of Digital Assets Using Blockchain and Smart Contracts. *IEEE*. 2018. Vol. 6. P. 65439-65448; Киселев А. Есть ли будущее у цифровых валют центральных банков?: аналитическая записка. М.: Банк России, 2019. 23 с.; Дюдикова Е. И. Методология и инструментарий формирования единого платежного пространства и интеграции цифровых финансовых активов в международные расчетные системы : диссертация на соискание ученой степени доктора экономических наук: 08.00.10 / Ставрополь: СКФУ, 2021. – 413 с.; Кочергин Д.А., Андрюшин С.А. (2023). Цифровые активы, криптоактивы и цифровые валюты: экономическое содержание и потенциал конвергенции. *Вестник Санкт-Петербургского университета. Экономика*, 39 (4), 496-533. doi: 10.21638/spbu05.2023.403; Кошелев, К. А. / Определение категории «цифровые финансовые активы»: экономический, правовой и учетный аспекты // *Научный журнал «Инновации и инвестиции»*. – Москва: 2021, С. 114 – 117.; Лосева О.В. (2022). Виды и классификация цифровых активов для целей стоимостной оценки. *Имущественные отношения в Российской Федерации*, (2 (245)), 45-57. doi: 10.24412/2072-4098-2022-2245-45-57; Лазарева Н.А. Цифровые финансовые активы: экономические и правовые аспекты их обращения // *Научные Известия*. 2020. № 19. С. 7-13.; Полякова В.В., Токун Л.В. Становление рынка цифровых финансовых активов в Российской Федерации // *Вестник университета*. 2019. № 6. С. 150-153.; Патрикеев П.А. Теоретические проблемы определения понятия цифрового финансового актива // *Самоуправление*. 2019. Т. 2. № 1(114). С. 278-281.; Тебекин А.В., Петров В.С. Пути совершенствования управления экономикой за счет использования цифровых финансовых активов // *Журнал экономических исследований*. 2020. Т. 6. № 4. С. 55-63; Сидорова О.В. Цифровые финансовые активы в современной экономике // *Экономика и управление: научная-практический журнал*. 2021. № 3 (159). С. 11-14.

takomillashtirish masalalari borasidagi mavjud muammolarning nazariy va amaliy jihatlari hamda yechimlari tadqiq qilingan<sup>6</sup>.

Xususan, iqtisodchi olim E.A. Xoshimov O‘zbekistonda valyuta siyosatini takomillashtirishning metodologik asoslarini tadqiq qilish jarayonida raqamli iqtisodiyotning pul-kredit va valyuta siyosatiga ta’sirini o‘rganib, markaziy bank raqamli valyutasi markaziy bank uchun kriptovalyutalar beradigan yangi to‘lov imkoniyatlariga javoban monetar siyosat maqsadlariga erishish va moliya tizimi barqarorligini ta’minlashning muhim instrumenti sifatida xizmat qilishi haqidagi xulosani olgan<sup>7</sup>.

Iqtisodchi olim Z.N. Kurbanov tomonidan raqamli moliyaviy aktivning xususiy ko‘rinishi bo‘lgan kriptovalyutani buxgalteriya hisobida hisobga olish va soliqqa tortish masalalari o‘rganilgan bo‘lib, raqamli moliyaviy aktivlar, shu jumladan, kriptovalyutaning buxgalteriya hisobi metodologiyasini takomillashtirish zarurligi ta’kidlanadi<sup>8</sup>. Iqtisodchi R.Sh. Salayev o‘z tadqiqotlarida tijorat banklarida raqamli aktivlar muomalasining hozirgi holatini o‘rganish asosida jahon moliya tizimida pul surrogatlarining zamonaviy shakllari faoliyati ustidan nazorat o‘rnatish masalasi kontekstida kompleks metodologiyaning yo‘qligini aniqlagan hamda O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki va maxsus moliya institutlari orqali nazorat organi asosida kriptovalyuta muomalasini tashkil etishga ikki yondashuvni taklif etgan<sup>9</sup>. Lekin alohida ta’kidlash lozimki, o‘zbekistonlik iqtisodchi olimlar tomonidan raqamli moliyaviy aktivlarni joriy etishning nazariy va metodologik asoslarini takomillashtirish masalasi alohida tadqiqot obyekti sifatida o‘rganilmagan.

---

<sup>6</sup> G‘ulomov S.S. va boshqalar. Raqamli iqtisodiyotda blokcheyn texnologiyalar. O‘quv qo‘llanmasi. – T.: Iqtisod va moliya 6 2019. -447 b.; Jumayev N.X., Ibragimova A.I. Raqamli iqtisodiyot va moliyaviy texnologiyalar: tijorat banklari uchun imkoniyat va tahdidlar. // *Moliya va bank ishi*. 6-son, noyabr-dekabr, 2020 yil; Xoshimov E.A. Raqamli iqtisodiyot sharoitida O‘zbekiston Respublikasi valyuta siyosatini takomillashtirishning metodologik jihatlari. Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2022.; Ismailov A.A. O‘zbekiston Respublikasi pul tizimini mustahkamlashning nazariy-uslubiy asoslarini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2016; Kurbanov, Z. (2023). Raqamli moliyaviy aktivlarning buxgalteriya hisobi. *Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil*, 1(4), 157–163. <https://doi.org/10.60078/2992-877X-2023-vol1-iss4-pp157-163>; Mamadiyarov Z.T. Raqamli transformatsiya jarayonida bank xizmatlarini masofadan ko‘rsatishning metodologik asoslarini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent 2022.; Abdullayeva Sh.Z. Bank ishi, Darslik. – T.: Iqtisod-Moliya, 2017.; Isayev, F. (2024). Raqamli iqtisodiyot sharoitida soliq tahlilining metodologik yondashuvlari. Nashrlar, 156. *Monografiya*. Retrieved from <https://e-itt.uz/index.php/editions/article/view/667>; Isayev, F. (2024). Raqamli moliyaviy aktivlarni soliqqa tortish masalalari. *Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil*, 2(1), 352–360. <https://doi.org/10.60078/2992-877X-2024-vol2-iss1-pp352-360>; Kurbonbekova M.T. O‘zbekistonda pul-kredit siyosati instrumentlaridan foydalanishning metodologik asoslarini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi. – Toshkent, 2023.; Duskobilov U.Sh. Inflatsion targetlashga o‘tish sharoitida monetar siyosat instrumentlaridan foydalanish metodologiyasini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari doktori (Doctor of Science) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2023.; Salayev R.Sh. Tijorat banklarida raqamli aktivlar muomalasini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Toshkent, 2022.; Azlarova A.A. O‘zbekistonda raqamli iqtisodiyot rivojlanishining bank moliya xizmatlari bozoriga ta’siri. // *Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar*. 2-son, mart-aprel, 2021-yil 2/2021 (№ 00052) <http://iqtisodiyot.tsue.uz>.

<sup>7</sup> Xoshimov E.A. Raqamli iqtisodiyot sharoitida O‘zbekiston Respublikasi valyuta siyosatini takomillashtirishning metodologik jihatlari. Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2022

<sup>8</sup> Kurbanov Z. (2023). Raqamli moliyaviy aktivlarning buxgalteriya hisobi. // *Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil*, 1(4), 157–163. <https://doi.org/10.60078/2992-877X-2023-vol1-iss4-pp157-163>.

<sup>9</sup> Salayev R.Sh. Tijorat banklarida raqamli aktivlar muomalasini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Toshkent, 2022.

**Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejasi bilan bog'liqligi.** Mazkur dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida moliya, bank va hisob tizimini muvofiqlashtirishning ilmiy asoslari" mavzusi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** O'zbekiston Respublikasida raqamli moliyaviy aktivlarni joriy etishning nazariy va metodologik asoslarini takomillashtirish borasida ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

"raqamli moliyaviy aktivlar" kategoriyasining iqtisodiy mohiyati va mazmunini aniqlashtirish, mavjud yondashuvlarni tahlil qilish asosida raqamli aktivlarni tasniflashning nazariy asoslarini shakllantirish;

raqamli aktivlar va pul shakllarining qiyosiy tahlili asosida markaziy bank raqamli valyutasining pulning uchinchi shakli sifatidagi mohiyatini aniqlashtirish;

raqamli moliyaviy aktivlar, raqamli valyutalarni joriy etish va tartibga solish bo'yicha xorijiy mamlakatlar amaliyotini o'rganish va umumlashtirish;

raqamli moliyaviy aktivlar bozorini rivojlantirishning joriy tendensiyalarini aniqlash va tahlil qilish;

O'zbekistonda kripto-aktivlar bozorini tartibga solishning huquqiy asoslarini shakllantirish amaliyotini tahlil qilish va uni takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish;

raqamli moliyaviy aktivlarni joriy etish metodologiyasini ishlab chiqish;

markaziy bank raqamli valyutasini joriy etish shart-sharoitlarini o'rganish, uning afzalliklari hamda kamchiliklarini solishtirish;

markaziy bank raqamli valyutasini joriy etish jihatlarini hisobga olgan holda O'zbekiston bank-moliya va pul-kredit sektorining joriy holatini tahlil qilish;

ekonometrik modellashtirish va empirik tahlil asosida markaziy bank raqamli valyutasi emissiyasining pul-kredit, moliya va bank tizimlariga ta'sir yo'nalishlarini aniqlash va baholash;

raqamli moliyaviy aktivlar muomalasi bilan bog'liq bo'lgan risklarning oldini olish shart-sharoitlarini ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obyektini** sifatida O'zbekistonda raqamli moliyaviy aktivlarni joriy etish faoliyati olingan.

**Tadqiqotning predmetini** iqtisodiyotda raqamli moliyaviy aktivlar va raqamli valyutani joriy etish jarayonida yuzaga keluvchi iqtisodiy munosabatlar tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot ishida ilmiy abstraksiya, qiyosiy va tarkibiy tahlil, mantiqiy fikrlash, analiz va sintez, konseptual va tarixiy-mantiqiy yondashuv, tizimli tahlil, PRISMA, SWOT, PEST tahlillari, ekonometrik modellashtirish va prognozlashtirishning ARIMA usullaridan keng foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

uslubiy yondashuvga ko'ra "raqamli aktivlar" tushunchasi markazsizlashtirish, soxtalashtirilmaslik, shaffoflik va xavfsizlik xususiyatlariga ega, qiymatni taqdim

qilish va uzatish, tarmoq protokollarida ishtirok etish va “aqlli” shartnomalarni bajarish uchun o‘tkazilishi va ishlatilishi mumkin bo‘lgan, faqat raqamli shaklda taqdim etiladigan, kriptografiya va blokcheyn texnologiyasiga asoslangan qiymatning noyob raqamli ko‘rinishlarini aks ettiruvchi aktivlarning iqtisodiy, huquqiy, texnologik va qiymat mazmuni jihatidan takomillashtirilgan;

uslubiy yondashuvga ko‘ra markaziy bank raqamli valyutasini uning asosiy afzalliklarini hisobga olish asosida joriy etishning makroiqtisodiy, mikroiqtisodiy, texnologik va institutsional motivlarga ko‘ra mualliflik guruhlanishi asosida takomillashtirilgan;

Markaziy bank raqamli valyutasining muomalaga joriy etilishi natijasida iqtisodiyotdagi pul massasi va uning tarkibiy o‘zgarishi hamda pul bozorining umumiy holatiga ta’sirini aniqlash, bank-moliya tizimida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan tizimli risklarni Markaziy bank tomonidan operativ tartibga solish imkoniyatini ta’minlash taklifi asoslangan;

raqamli valyutaning pul-kredit siyosatini o‘tkazish mexanizmiga ta’sirini baholashda pul agregatlari bo‘yicha pul muomalasining tezligi ( $Vt = 0,34$ ), naqd pul darajasi ( $Cr = 0,21$ ), elektron pul darajasi ( $Ec = 0,27$ ), raqamli moliya darajasi ( $Fe = 0,18$ ) o‘rtasidagi maqbul nisbatlarni ta’minlash orqali ijobiy natijalarga erishish asoslangan;

Markaziy bank raqamli valyutasi pul bozoriga kiritilishining ta’sir darajasini belgilovchi omillarni miqdoriy va sifat jihatidan baholashning ko‘p omilli balans ekonometrik modeli asosida naqd va naqd bo‘lmagan pullar miqdori o‘zgarishining 2027-yilga qadar prognoz ko‘rsatkichlari ishlab chiqilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

kripto-depozitariy elektron platformasida smart-shartnoma asosida tijorat banking investitsion tokenlar shaklida raqamli moliyaviy aktivlarni joylashtirish va muomalaga chiqarish natijasida tijorat banking innovatsion bank mahsulotlari yangi turlarini shakllantirish hamda moliyaviy mablag‘lar manbalarini diversifikatsiya qilish imkoniyatini ta’minlash asoslangan;

raqamli moliyaviy aktivlar muomalasini tartibga solish va nazorat qilish amaliyotini takomillashtirish chora-tadbirlari aniqlangan;

raqamli moliyaviy aktivlar muomalasi bilan bog‘liq risklarning oldini olish shart-sharoitlari asoslangan;

ekonometrik tahlil asosida raqamli valyutani joriy etish pul muomalasining qulayligi va samaradorligini oshirishi mumkinligi asoslangan;

raqamli valyutani joriy etish modeli naqd pulsiz to‘lovlarning yalpi ichki mahsulotga ijobiy ta’sirini bosqichma-bosqich oshirish bilan o‘rta va uzoq muddatli istiqbolga yo‘naltirilishi zarurligi belgilangan;

raqamli iqtisodiyot va raqamli moliyaning rivojlanishi bilan keyinchalik ulgurji modelni ishlab chiqish bilan raqamli valyutaning chakana modelini joriy etish maqsadga muvofiqligi asoslangan;

Markaziy bank raqamli valyutasini joriy etishda raqamli valyutaning turli hajmlarida iqtisodiyot uchun turli darajadagi risklari bilan foizli va foizsiz saqlash shartlarini hisobga olgan holda, ssenariy variantlari ishlab chiqilgan;

raqamli valyutaning pul muomalasi tezligiga ta'sirini o'rganish uchun ekonometrik model ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Dissertatsion tadqiqot natijalarining ishonchliligi raqamli moliyaviy aktivlar va raqamli valyuta ilmiy-nazariy asoslarining tadqiqi, ilg'or xorij tajribasini o'rganish va umumlashtirish natijalari hamda O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining statistik ma'lumotlari va tijorat banklarining faoliyatiga oid amaliy ma'lumotlar tahlillariga asoslanganligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ulardan mamlakat iqtisodiyotida raqamli moliyaviy aktivlar va raqamli valyutani rivojlantirishga bag'ishlangan ilmiy-tadqiqotlarni amalga oshirishda manba sifatida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, ulardan raqamli valyuta va raqamli moliyaviy aktivlarni joriy etish mexanizmini takomillashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar majmuasini ishlab chiqishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** O'zbekiston Respublikasida raqamli moliyaviy aktivlarni joriy etishning nazariy va metodologik asoslarini takomillashtirish borasida ishlab chiqilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar asosida:

uslubiy yondashuvga ko'ra "raqamli aktivlar" tushunchasini markazsizlashtirish, soxtalashtirilmalik, shaffoflik va xavfsizlik xususiyatlariga ega, qiymatni taqdim qilish va uzatish, tarmoq protokollarida ishtirok etish va "aqlli" shartnomalarni bajarish uchun o'tkazilishi va ishlatilishi mumkin bo'lgan, faqat raqamli shaklda taqdim etiladigan, kriptografiya va blokcheyn texnologiyasiga asoslangan qiymatning noyob raqamli ko'rinishlarini aks ettiruvchi aktivlarning iqtisodiy, huquqiy, texnologik va qiymat mazmuni jihatidan takomillashtirish bo'yicha nazariy va uslubiy ishlanmalardan oliy o'quv yurtlari talabalari uchun tavsiya etilgan "Moliya bozori va moliyaviy texnologiyalar" nomli darslikni tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 11-noyabrdagi 429-sonli buyrug'i). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida talabalarda kriptografiya va blokcheyn texnologiyasiga asoslangan qiymatning noyob raqamli ko'rinishlarini aks ettiruvchi aktivlarning iqtisodiy, huquqiy, texnologik va qiymat mazmuni jihatidan takomillashtirilgan "raqamli aktivlar" tushunchasi bo'yicha nazariy bilimlarni kengaytirish imkoni yaratilgan;

uslubiy yondashuvga ko'ra markaziy bank raqamli valyutasini uning asosiy afzalliklarini hisobga olish asosida joriy etish motivlarining makroiqtisodiy, mikroiqtisodiy, texnologik va institutsional motivlarga ko'ra mualliflik guruhlanishi asosida takomillashtirish bo'yicha nazariy va uslubiy ishlanmalardan oliy o'quv yurtlari talabalari uchun tavsiya etilgan "Moliya bozori va moliyaviy

texnologiyalar” nomli darslikni tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 11-noyabrda 429-sonli buyrug‘i). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida talabalarda markaziy bank raqamli valyutasini joriy etishning makroiqtisodiy, mikroiqtisodiy, texnologik va institutsional motivlarga ko‘ra mualliflik guruhlanishi asosida takomillashtirish bo‘yicha nazariy bilimlarni kengaytirish imkoni yaratilgan;

Markaziy bank raqamli valyutasining muomalaga joriy etilishi natijasida iqtisodiyotdagi pul massasi va uning tarkibiy o‘zgarishi hamda pul bozorining umumiy holatiga ta’sirini aniqlash, bank-moliya tizimida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan tizimli risklarni Markaziy bank tomonidan operativ tartibga solish imkoniyatini ta’minlash taklifi O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan qabul qilinib, kelgusidagi faoliyatini takomillashtirishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2025-yil 20-fevraldagi 08-06/88-sonli dalolatnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida Markaziy bank raqamli valyutasining mamlakat moliya tizimi ishlashi barqarorligiga ta’sirini o‘rganish, ehtimoliy risklarni aniqlash hamda ularni operativ tartibga solish imkoniyati yaratilgan;

raqamli valyutaning pul-kredit siyosatini o‘tkazish mexanizmiga ta’sirini baholashda pul agregatlari bo‘yicha pul muomalasining tezligi ( $Vt = 0,34$ ), naqd pul darajasi ( $Cr = 0,21$ ), elektron pul darajasi ( $Ec = 0,27$ ), raqamli moliya darajasi ( $Fe = 0,18$ ) o‘rtasidagi maqbul nisbatlarni ta’minlash orqali ijobiy natijalarga erishish taklifi O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan amaliyotga joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2025-yil 20-fevraldagi 08-06/88-sonli dalolatnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida Markaziy bank raqamli valyutasi joriy qilinishining pul-kredit siyosati qarorlari hamda pul-kredit siyosati transmissiya mexanizmiga ta’sirlarini operativ baholash, raqamli pul agregatlari bo‘yicha pul muomalasining tezligi, naqd pul darajasi, elektron pul darajasi, raqamli moliya darajasi o‘rtasidagi maqbul nisbatlarni ta’minlash imkoni yaratilgan;

Markaziy bank raqamli valyutasining pul bozori va moliya tizimiga kiritilishining ta’sir darajasini belgilovchi omillarni miqdor va sifat jihatidan baholashda ko‘p omilli balans ekonometrik modeli asosida naqd va naqd bo‘lmagan pullar miqdori o‘zgarishining 2027-yilga qadar ishlab chiqilgan prognoz ko‘rsatkichlaridan foydalanish taklifi O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan amaliyotga joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2025-yil 20-fevraldagi 08-06/88-sonli dalolatnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida omillarni miqdoriy va sifat jihatidan baholashning ko‘p omilli balans ekonometrik modeli asosida naqd va naqd bo‘lmagan pullar miqdori o‘zgarishining istiqbol ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi o‘zaro muvofiqlikni ta’minlash imkoni yaratilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 7 ta xalqaro va 6 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida ma’ruza shaklida bayon qilingan va ma’qullangan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya ishi bo'yicha jami 35 ta ilmiy ish, shu jumladan, 1 ta ilmiy monografiya, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiyasi komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan mahalliy ilmiy nashrlarda 9 ta, nufuzli xorijiy jurnallarda 6 ta ilmiy maqola nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkiban kirish, 4 ta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va asosiy vazifalari, obykti va predmeti shakllantirilgan, respublikada fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon etilgan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilganligi va sinovdan o'tganligi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Raqamli aktivlarning shakllanishi va tasniflanishining nazariy hamda metodologik asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida raqamli aktivlar konsepsiyasi, kelib chiqishi va tasnifi bilan bog'liq muhim jihatlar yoritilgan, raqamli aktivlarga oid asosiy nazariy tushunchalar tahlil qilingan va ularni tasniflashning mavjud uslubiy yondashuvlari ko'rib chiqilib, foydalanish xususiyatlarini hisobga olgan holda raqamli aktivlarni tasniflash bo'yicha mualliflik uslubiy yondashuvi taklif qilingan hamda bob yakunida mazkur masalalar bo'yicha ilmiy xulosalar shakllantirilgan.

Olib borilgan tadqiqot jarayonida mavjud ilmiy tadqiqotlarning solishtirma tahlili asosida “raqamli aktiv” atamasining mohiyatini to'liq yoritib beruvchi yagona to'liq ta'rifi mavjud emasligi aniqlandi. Bu esa raqamli aktivlardan foydalanish bilan bog'liq ko'plab jarayonlarni tushunishni sezilarli darajada murakkablashtiradi va raqamli aktivlarning noto'g'ri talqin qilinishiga olib keladi. Raqamli aktivlarning xilma-xil shakllari va xususiyatlari ularning asl mohiyatini yoritish borasida yagona ilmiy fikr yoki nazariy yondashuvlar shakllanishiga to'sqinlik qiladi. Ahamiyatlisi shundaki, raqamli aktivlarning yuzaga kelishi va keng tarqalishi aktivlarni tokenlash jarayoni bilan uzviy bog'liq.

Aktivlarni tokenlash – real dunyo aktivlariga (masalan, ko'chmas mulk, san'at asarlari, qimmatli qog'ozlar yoki intellektual mulk singari moddiy va nomoddiy aktivlar) bo'lgan huquqlarni blokcheyn yoki boshqa taqsimlangan reyestr texnologiyalarida raqamli tokenlar ko'rinishida ifodalash va muomalaga kiritish jarayoni. Bu jarayon aktivlarning bo'linuvchanligini va likvidligini oshirish, ulushli egalikni joriy etish, tranzaksiyalar shaffofligini ta'minlash hamda hisob-kitob va mulk huquqini o'tkazish operatsiyalari samaradorligi yuksalishi imkonini beradi. Tokenlashtirilgan aktivlar, o'z navbatida, raqamli aktivlarning muhim bir turkumini tashkil etib, ularning iqtisodiy va huquqiy tabiatini yanada kengaytiradi.

Raqamli aktivlar aktivlarning raqamli shaklda mavjud bo‘lgan va uzatiladigan shaklidir. Ular qiymat, huquq yoki mulkning turli shakllarini ifodalashi mumkin. Raqamli aktivlarga misol sifatida Bitcoin, Ethereum va Litecoin singari kriptovalyutalar, shuningdek, blokcheyn platformalari va innovatsion loyihalarda foydalaniluvchi tokenlar kiradi. Raqamli aktivlarning asosiy xususiyatlaridan biri ularning markazlashmaganligi va tranzaksiyalar xavfsizligi va nazoratini ta’minlash uchun kriptografiyadan foydalanishdir. Raqamli aktivlar ko‘pincha blokcheyn texnologiyasiga asoslanadi, bu esa tarmoq ishtirokchilariga markazlashtirilgan vositachiga ehtiyoj sezmay, ishonchni o‘rnatish va konsensusga erishish imkonini beradi.

Tadqiqot ishida raqamli aktivning nazariy konsepsiyasini shakllantirishda uning mohiyatini yoritib beruvchi texnologik, huquqiy, iqtisodiy, qiymat yondashuvlari asosida qiyosiy hamda tizimli tahlil amalga oshirildi (1-jadval).

**1-jadval**

**Raqamli aktivlarning mohiyatini aniqlash yondashuvlari<sup>10</sup>**

Atama	Ta’rif	Mualliflar
<b>Texnologik yondashuv</b>		
<b>Raqamli aktiv</b>	axborot resursi bo‘lib, u taqsimlangan reyestrda unikal identifikator ko‘rinishida amalda bo‘ladi, u qiymatga bo‘lgan huquqning hosilaviy ko‘rinishidir	Denisov I. S.
	kompaniya yoki jismoniy shaxslar guruhi tomonidan chiqariladigan va kriptotangalarning ba’zi xususiyatlariga ega raqamli hosilali moliyaviy vosita, bunda u IT texnologiyalari yordamida yaratilgan, smart-shartnomalar va xeshlashning isboti bilan tasdiqlangan, axborot tizimida/taqsimlangan reyestrda muomalada bo‘lgan, ko‘zga ko‘rinmas, ammo emitentlar va egalari uchun naflilik xususiyatlari bilan ta’minlangan.	Bodyako A.V., Ponomareva S.V.
	bu egalik qilinadigan moddiy resurslar to‘plamiga nisbatan beriladigan mavhum havolalar	Cloud Adoption Framework
	Raqamli aktivning muhim belgisi unda aktivning haqiqiylikni tasdiqlovchi hamda axborot tizimida uning “nomi” va joylashuvini (masalan taqsimlangan reyestrda raqamli moliyaviy aktiv) ko‘rsatib beradigan unikal identifikator, shuningdek, kriptografik yoki boshqa himoya mexanizmlari yordamida boshqa foydalanuvchilar uchun kirish imkoniyati cheklovi mavjud bo‘lishidir.	Loseva O.V.
	ikkilik sanoq tizimi formatidagi nomoddiy aktiv, shu jumladan mulkchilik huquqi hamdir. Bu huquqni o‘z ichiga olmaydigan ma’lumotlar raqamli aktivlar hisoblanmaydi. Raqamli aktivlar, boshqa barcha (raqamli bo‘lmagan) aktivlar singari talab va taklif bilan belgilanadigan moliyaviy qiymatga ega bo‘lishi shart	Salayev R.Sh.
<b>Kriptovalyuta</b>	pulning raqamli tarzda bitlardan tarkib topgan qator sifatida aks ettirilgan ko‘rinishidir. Ular tarmoq bo‘ylab raqamli shakldagi xabarlar sifatida yuborilishi mumkin, tarmoqning o‘zi (blokcheyn tarmog‘i yoki taqsimlangan reyestr tarmog‘i) xabar yuborilganligi haqiqiylikni konsensus mexanizmlari, masalan, ish isboti (proof-of-work, qisq. PoW) yoki egalik qilish isboti (proof-of-stake, qisq. PoS) kabilar yordamida tekshiradi	Vlasov A.V.
<b>Kripto-aktiv</b>	Tranzaksiyalarni tasdiqlash va himoyalash uchun kriptografik jihatdan himoyalangan taqsimlangan reyestrda yoki shunga o‘xshash texnologiyaga tayanuvchi qiymatning raqamli ifodalardir	Iqtisodiy Hamkorlik va Taraqqiyot Tashkiloti (OECD)

<sup>10</sup> Tadqiqotchi tomonidan tadqiqotlarni tahlil qilish natijasida shakllantirilgan.

<b>Atama</b>	<b>Ta'rif</b>	<b>Mualliflar</b>
	bu taqsimlangan reyestr texnologiyasida (DLT) (masalan, blokcheynda) qayd etilgan, kriptografiya bilan himoyalangan raqamli aktivlardir	Houben R. Snyers A.
<b>Huquqiy yondashuv</b>		
<b>Raqamli aktiv</b>	ma'lumotlarni qayta ishlashning dasturiy va apparat vositalaridan foydalangan holda taqsimlangan axborot tizimidagi yozuv sifatida ifodalangan fuqarolik huquqlari obyekti	Bogataya I. N., Yevstafeva Ye. M.
<b>Raqamli belgi (token)</b>	tranzaksiya bloklari (blokcheyn) reyestrtdagi yoki boshqa taqsimlangan axborot tizimidagi yozuv bo'lib, raqamli belgi (token) egasining fuqarolik huquqlari obyektlariga bo'lgan huquqlarining mavjudligini tasdiqlaydi va/yoki kriptovalyuta hisoblanadi.	«Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish to'g'risida»gi Dekret (Belarus Respublikasi) 21.12.2017 №8
<b>Raqamli moliyaviy aktiv</b>	raqamli huquq bo'lib, u pul talabnomalari; nodavlat aksiyadorlik jamiyatlarining kapitalida ishtirok etish; qimmatli qog'ozlar va ularni talab qilish huquqini o'tkazish bo'yicha huquqlarni o'z ichiga oladi.	Safin A.
<b>Raqamli moliyaviy aktiv</b>	raqamli huquqlar bo'lib, ularni chiqarish, hisobga olish va muomalada bo'lishini taqsimlangan reyestrda asoslangan axborot tizimiga, shuningdek boshqa axborot tizimlariga faqatgina yozuvlarni kiritish (o'zgartirish) orqali amalga oshirish mumkin.	Naval'niy A.A.
<b>Raqamli aktiv</b>	fuqarolik muomalasining virtual obyekti bo'lib, real moliyaviy qiymatga ega va yagona identifikator ko'rinishida taqsimlangan reyestrda muomalada bo'ladi.	Naval'niy A.A.
<b>Iqtisodiy yondashuv</b>		
<b>Raqamli aktiv</b>	Korxonaning faoliyati va uning moliyaviy natijalariga ta'sir ko'rsatuvchi aktivlardir	Romanov N. I., Romanova N. V.
	murakkab tarkibli kategoriya bo'lib, uch komponentdan tashkil topgan - aktivlar, moliyaviy aktivlar va raqamli texnologiyalar,	Koshelev K. A.
	taqsimlangan reyestr yoki blokcheyn texnologiyasi asosida yaratilgan va moliyaviy funksiyalarni bajaruvchi iqtisodiy-huquqiy shakllari bo'yicha farqlanadigan aktivlar	Kochergin D. A., Pokrovskaya N. V.
	kripto-aktivlar valyuta emas va ularni pul deb hisoblash mumkin emas, chunki ular qiymat o'lchovi va jamg'arish vositasi funksiyasini to'liq bajarmaydi.	Sakharov D.M.
<b>Qiymat (hisobga olish) yondashuvi</b>		
<b>Raqamli aktiv</b>	haqiqiy (real) aktiv qiymatining raqamli ifodalanishidir	Ekonomicheskaya gazeta
<b>Virtual aktiv</b>	raqamli tarzda sotilishi yoki o'tkazilishi mumkin bo'lgan hamda to'lov yoki investitsiya maqsadlarida ishlatilishi mumkin bo'lgan qiymatning raqamli ifodasidir. Virtual aktivlar FATF Tavsiyalarining boshqa qismlarida qamrab olingan fiat valyutalar, qimmatli qog'ozlar va boshqa moliyaviy aktivlarning raqamli ifodalarini o'z ichiga olmaydi	Moliyaviy harakatlar bo'yicha maxsus guruh (FATF)

1-jadvalda keltirilgan ta'riflarni tahlil qilish va atamalardan foydalanish amaliyotini kuzatib, ta'kidlash mumkinki, jamiyatda ko'pincha "raqamli aktiv" atamasi kriptovalyuta tushunchasini anglatish uchun qo'llanilmoqda va bu bilan atamalar almashinuvi yuzaga kelmoqda. Bu tendensiyalar jamoatchilik ongidagi kriptovalyutaning noaniq maqomi bilan bog'liq. Tadqiqotchining fikricha, raqamli aktiv, kripto-aktiv, raqamli moliyaviy aktiv va raqamli valyuta tushunchalarini farqlash va huquqiy, iqtisodiy, investitsiyaviy, texnologik jihatdan va tartibga solish xususiyatlariga asoslanib, ularning asosiy xususiyatlari va farqlarini aniq ajratish zarur. Raqamli aktivlarning nazariy asoslarini ishlab chiqish uchun raqamli aktivlar konsepsiyasining mualliflik talqini taqdim etilgan: raqamli aktivlar faqat raqamli shaklda taqdim etiladigan hamda kriptografiya va taqsimlangan reyestr



kriptovalyuta, raqamli valyuta, steyblkoyn singari raqamli aktiv toifalarini ajratish imkoniyati yaratiladi.

Raqamli moliyaviy aktivlarning tasnifi xilma-xil bo‘lib, ularning xususiyatlari, maqsadi va texnologik asoslariga ko‘ra bir nechta toifalarni qamrab oladi. Raqamli aktivlarni tasniflashning mualliflik talqiniga asosan, ularni 2 tur: raqamli moliyaviy aktivlar va raqamli nomoliyaviy aktivlarga ajratish maqsadga muvofiq (2-rasm).

Shu bilan bir qatorda, markaziy banklarning raqamli valyutalari raqamli moliyaviy vositalarning alohida toifasiga kiritilishi kerak, chunki ular pulning raqamli shaklini ifodalaydi va pulning 3 ta asosiy funksiyasini bajaradi, raqamli moliyaviy aktivlar esa to‘lov vositasi sifatida xizmat qiladi va investitsiya obyektini sifatida namoyon bo‘ladi.

RAQAMLI AKTIVLAR	RAQAMLI MOLIYAVIY AKTIVLAR	Markaziy bankning raqamli valyutasi	Raqamli yuan  ENaira, Raqamli tengge
		Kriptoaktivlar	Kriptovalyutalar  Tokenlar va steyblkoynlar  Tokenlashtirilgan aktivlar
	RAQAMLI NOMOLIYAVIY AKTIVLAR	Boshqa raqamli aktivlar	O‘yin tokenlari  Ilovalar tokenlari  Unikal tokenlar

## 2-rasm. Raqamli aktivlarning tasnifi<sup>12</sup>

2-jadvalda raqamli aktivlar va pulning turli shakllari asosiy xususiyatlarining qiyosiy tahlili amalga oshirilgan. Raqamli valyuta markaziy bankning majburiyatlarini ifodalaydi, depozit mablag‘lari va elektron pullar esa xususiy emitentlar tomonidan chiqarilgan majburiyatlardir. Emissiya texnologiyasidan foydalanishda mumkin bo‘lgan o‘xshashliklarga qaramay, markaziy bankning raqamli valyutalari markaziy bankning pul majburiyatlarini o‘zida mujassam etganligi sababli kriptovalyutalar va steyblkoynlardan farq qiladi. “Kriptovalyutalar” va “steyblkoynlar”ni esa pul sifatida to‘liq tasvirlab bo‘lmaydi, sababi pulning barcha funksiyalarini bajarish uchun ularda barcha xususiyatlar jamlanmagan. Ularni yaratish va ishlatishning qonuniyligi va ishonchligini ta‘minlovchi ishonchli kafil yo‘q. Bunday aktivlardan to‘lov vositasi sifatida samarali foydalanish mumkin emas, chunki ular tovar va xizmatlarni sotib olishda keng qabul qilinmaydi.

Ular, shuningdek, rasmiy valyutalarga nisbatan qiymatining sezilarli o‘zgaruvchanligi tufayli barqaror qiymat o‘lchovi va jamg‘arish vositasi bo‘la

<sup>12</sup> Tadqiqotchi ishlanmasi.

olmaydi. Ularning milliy pulga ayirboshlash kursi sezilarli tebranishlarga duch keladi, bu esa ular qiymatining noaniqligini oshiradi.

## 2-jadval

### Raqamli aktivlar va pul shakllarining qiyosiy tahlili<sup>13</sup>

Xususiyati	Pul shakllari						
	MBRV (Markaziy bankning raqamli valyutasi)	Naqd pullar	Naqdsiz pullar		Xususiy kripto-aktivlar		Tokenlash-tirilgan aktivlar
			Elektron pullar	Depozit pullar	Steyblkoyn-lar	Ta'minlan-magan kriptovalyutalar	Raqamli moliyaviy aktivlar
Emitent	Markaziy bank	Markaziy bank	Xususiy kompaniya	Tijorat banklari	Muayan shaxslar yoki xususiy kompaniya	Muayan shaxslar yoki xususiy kompaniya	Xususiy kompaniya
Emissiya-ning texnologik shakli	TRTda elektron shaklda noy (tokenlar yoki hisoblar asosida) Raqamli kod	Qimmatli qog'ozlar jismoniy belgilari shaklida Himoyalangan qog'oz	Elektron shaklda	Elektron shaklda Bank ma'lumot bazasidagi raqamli yozuv	Elektron shaklda taqsimlangan reyestrda	Elektron shaklda taqsimlangan reyestrda	Elektron shaklda taqsimlangan reyestrda
Anonimlik	Mavjud emas	Mavjud	Mavjud emas	Mavjud emas	Mavjud bo'lishi mumkin	Mavjud bo'lishi mumkin	Mavjud emas
To'lov vositasi	Bo'ladi, to'lov miqdoriga qo'yilgan cheklolarga bog'liq	Bo'ladi	Bo'ladi	To'lov vositasi sifatida universal hisoblana-di	Ha (yo'q, agar alohida mamlakat qonunlari talab qilsa)	Ha (yo'q, agar alohida mamlakat qonunlari talab qilsa)	Yo'q
Risklar	Yo'qotish, o'g'irlik, firibgarlik va kiberxavflar	Yo'qotish, o'g'irlik, firibgarlik	Yo'qotish, o'g'irlik, firibgarlik	Firibgarlik va kiber risk, likvidlik va to'lov qobiliyati risklari	Firibgarlik va kiberxavf	Firibgarlik va kiberxavf	Kiberxavf
Foizlar-ning hisoblani-shi	Markaziy bank siyosatiga bog'liq	Mavjud emas	Mavjud emas	Mavjud	Mavjud emas	Mavjud emas	Mavjud
Xarid qobiliyati-ni qo'llab-quvvatlash	Qonuniy to'lov vositasi	Qonuniy to'lov vositasi	Qonuniy to'lov vositasi	Omonatlarni sug'urtalash	Qisman	Mavjud emas	Aktivlar bilan ta'minlana-di
Misollar	Sand Dollar, DCash, ENaira	Markaziy bank banknotalari	AliPay, mPesa	Tijorat banklari omonatlari	Tether, USD coin, Terra	Bitcoin, Ethereum	Tesla tokenized stock FTX, Amazon tokenized stock FTX

Raqamli valyutaning texnologik va iqtisodiy mohiyatini tahlil qilishdan xulosa qilish mumkinki, markaziy bankning raqamli valyutalari nafaqat markaziy bank


<sup>13</sup> Jadval tadqiqotchi tomonidan quyidagi tadqiqotlar tahlili asosida tuzilgan: Sakharov D. M. Central bank digital currencies: Key aspects and impact on the financial system. Finance: Theory and Practice. 2021;25(5):133-149., Kochergin, D. A. (2022). Central bank digital currencies: experience of introducing a digital yuan and development of a digital ruble conception. Russian Journal of Economics and Law, 16 (1), 51–78 (in Russ.). DOI: <http://dx.doi.org/10.21202/2782-2923.2022.1.51-78>; Cryptocurrencies: trends, risks, measures Report for public consultations Moscow 2022 (Криптовалюты: тренды, риски, меры Доклад для общественных консультаций, Москва 2022).

pullarining uchinchi shakli, balki naqd va naqd bo'lmagan mablag'larga qo'shimcha ravishda kiritilishi mumkin bo'lgan fiat pullarning innovatsion kengaytirilgan shakli sifatida yoki naqd pulning o'rnini bosuvchisi sifatida ko'rib chiqilishi kerak.

Milliy raqamli valyutalarning ijobiy fazilatlarini qatorida ularni qalbakilashtirish mumkin emasligi, bo'linuvchanligi, xavfsizlik va kriptografik barqarorlik, tranzaksiyalarning yuqori tezligi, shaffoflik, to'lov infratuzilmasini sezilarli darajada yaxshilash va xususiy kriptovalyutalar bilan raqobatlashish imkoniyati ta'kidlanadi. Shu bilan birga, bunday valyutaning chiqarilishi butun moliya tizimi uchun jiddiy muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Xalqaro hisob-kitoblar banki tomonidan milliy raqamli valyutalar muomalasi bilan bog'liq moliyaviy barqarorlikning muhim va ehtimoliy xavfi sifatida xususiy moliya institutlaridan markaziy banklarga mablag'larning sezilarli darajada chiqib ketishi ehtimoli mavjudligi aniqlangan.

Raqamli moliyaviy aktivlarni joriy etishning nazariy asoslarini tadqiq qilish natijalari ko'rsatdiki, raqamli aktivlarda to'laqonli nazariy asoslar shakllantirilmaganligi natijasida ularning turlicha talqini va tasniflanishi yuzaga kelmoqda, bu esa raqamli aktivlarni tartibga solish muammolarini samarali hal qilishda to'sqinlik qilmoqda. Dunyo mamlakatlarida kuzatiladigan tendensiyani o'rganish natijasida shunday xulosaga kelindiki, istiqbolda raqamli aktivlar muomalasini tartibga solishning global va unifikatsiyalangan me'yorlari va qoidalari ishlab chiqilishi lozim.

Dissertatsiyaning **“Raqamli moliyaviy aktivlarni joriy etishning uslubiy asoslari”** nomli ikkinchi bobida raqamli moliyaviy aktivlarni iqtisodiyotga integratsiyalashning asosiy uslubiy yondashuvlari va amaliy qadamlari ko'rib chiqilgan. Unda me'yoriy-huquqiy bazani yaratish uchun zarur bo'lgan amaliyotdagi uslubiy yondashuvlar va huquqiy jihatlar tahlilini o'z ichiga olib, raqamli aktivlarning joriy etishning metodologik jihatlari, iqtisodiy modellari va moliyaviy bozorlarga ta'siri o'rganilgan, bunda foyda va risklarga e'tibor qaratilgan. Tadqiqot davomida amalga oshirilgan tahlillar natijasida raqamli moliyaviy aktivlar (tokenlar va kriptovalyutalar) aylanmasini tartibga solishning uchta asosiy yondashuvi aniqlangan.



### 3-rasm. Dunyoda raqamli aktivlarni huquqiy tartibga solish yondashuvlari<sup>14</sup>

3-rasmda ko'rsatilganidek, boshqa mamlakatlar raqamli aktivlar va kriptovalyutalarning aylanishini tartibga solishning mustaqil rejimini ishlab chiqayotgan bir vaqtda risklarning o'xshashligi tamoyiliga rioya etuvchi boshqa davlatlar ham mavjud.

<sup>14</sup> Tadqiqotchi tomonidan ekspert tadqiqotlari natijalarini o'rganish va sintez qilish asosida tuzilgan.

Turli davlatlarda kripto-aktivlar va raqamli moliyaviy aktivlarning huquqiy maqomi, qonunchilik normalari, tartibga solish va litsenziyalash tartibi hamda soliqqa tortilishi taomillari turlicha va iqtisodiyoti yuqori sur'atlar bilan rivojlanayotgan mamlakatlarning ko'pchiligida raqamli moliyaviy aktivlar bozorini tartibga solishda liberallashtirish siyosati amalga oshirilmoqda.

### 3-jadval

#### MDH mamlakatlarida kriptovalyutalarning integratsiyalashuv darajasi<sup>15</sup>

Mamlakat	2024-yilda kriptovalyutalar qabul qilinishining global indeksi*	2023-yilga nisbatan ko'tarilishi yoki pasayishi (+/-)	2023-yilda kriptovalyutalarga egalik qilgan aholi soni, kishi	Aholi umumiy soniga nisbatan ulushi %da)**
O'zbekiston	33	-8	512 322	1,46%
Qozog'iston	57	-12	341 971	1,74%
Qirg'iziston	76	-5	115 621	1,72%
Gruziya	54	-3	89 055	2,39%
Ozarbayjon	92	-19	121 397	1,17%
Rossiya	7	+6	8 749 780	6,06%
Belarus	38	+5	285 325	3,00%
Armaniston	77	+11	48 266	1,74%

\* The 2024 Global Adoption Index, Chainalysis Indeks 151 mamlakatni qamrab oladi.

\*\* Triple-A sayti ma'lumotlari.

KPMG Valuation and Consulting kompaniyasining hisobotiga<sup>16</sup> ko'ra, MDH davlatlarida mazkur sohani tartibga solishda turlicha yondashuvlarga amal qilinadi va ularning aksariyatida raqamli moliyaviy aktivlardan foydalanish hali keng tarqalmagan. Ayrim davlatlarda kriptovalyutalarni joriy etishga ehtiyotkorlik bilan yondashilsa, boshqalarida endigina qonunchilik moslashtirila boshlagan bir paytda, Markaziy Osiyo davlatlarida konservativ jamiyat va progressiv qonunlar yo'li tanlandi. Markaziy Osiyoda kriptovalyuta bozorlariga ikkita asosiy jihat: har bir davlatning raqamli aktivlarga nisbatan pozitsiyasi va ularni tartibga solish darajasi ta'sir ko'rsatadi.


Kriptovalyutalarni iqtisodiyotga integratsiyalash zarurligi haqida birinchi bo'lib qadam tashlagan mamlakat O'zbekiston hisoblanadi. Biroq bugungi kunda bu sohada Qozog'iston yetakchilik qilmoqda, u yerda eng rivojlangan huquqiy baza yaratilgan. Qozog'istonda yirik kriptovalyuta maydonlari faoliyat yuritadi, bank tizimi bilan integratsiya yo'lga qo'yilgan va umuman, soha jadal va xalqaro standartlarga muvofiq rivojlanmoqda.

3-jadvaldagi ma'lumotlarning qiyosiy tahliliga ko'ra, O'zbekiston kriptovalyutalarni qabul qilish bo'yicha global indekda 33-o'rinni egallab, mintaqada yetakchilik qilmoqda. Bu 2023-yilga nisbatan 8 pog'ona past bo'lsa-da, hali ham yuqori ko'rsatkich hisoblanadi. Rossiya kriptovalyuta foydalanuvchilari soni (8 749 780 kishi) va ularning aholining umumiy soniga nisbatan ulushi (6,06 %) bo'yicha yetakchilik qilmoqda. Bu bir qator omillar, jumladan, raqamlashtirishning yuqori

<sup>15</sup> <https://www.chainalysis.com/blog/2023-global-crypto-adoption-index/>, <https://www.chainalysis.com/blog/2024-global-crypto-adoption-index/>, <https://www.triple-a.io/cryptocurrency-ownership-data> saytlari ma'lumotlari asosida tadqiqotchi tomonidan shakllantirilgan.

<sup>16</sup> Абдуллаханов Ф., Старостина М. Цифровые финансовые активы – законодательство, правоприменительная практика, бизнес-кейсы // ООО «KPMG Valuation and Consulting». 2024.

darajasi, rivojlangan IT-infratuzilma va kriptovalyutalarning keng tarqalishi bilan bog‘liq.



**4-rasm. 2021-2024-yillarda O‘zbekistonning kriptovalyutalar qabul qilinishi global reytingidagi o‘rni<sup>17</sup>**

4-rasmda aks ettirilganidek, so‘nggi to‘rt yil ichida mamlakatimiz global reytingda 95-o‘rindan 33-o‘ringa ko‘tarilgan. 2022-yilda mazkur indeks qiymati 0,159ni tashkil qilgan bo‘lsa-da, O‘zbekistonning o‘rni 87-pog‘onada turgan. 2023-yilga kelib esa, indeks qiymati 0,055 gacha pasaygan bo‘lsa-da, mamlakatlar o‘rtasida O‘zbekistonning naq 62 pog‘onaga yuqorilashiga hamda 25-o‘ringa ko‘tarilganini ko‘rish mumkin.

**4-jadval**

**2022-2024-yillarda MDH mamlakatlarida kriptosanoat ishtirokchilari faoliyati natijalari<sup>18</sup>**

Mamlakat	Davlat budjetiga tushumlar	Litsenziyaga ega ishtirokchilar soni
O‘zbekiston	3,6 mln. AQSh dollari	14
Qozog‘iston	11 mln. AQSh dollari	61
Qirg‘iziston	1,044 mln. AQSh dollari	126
Gruziya	1,083 mln. AQSh dollari	19

Mazkur holat 2023-yildan boshlab reytingni hisoblash metodologiyasidagi o‘zgarishlar bilan izohlanadi. 4-jadvalda keltirilgan ma‘lumotlar asosida kriptovalyuta bozorining mintaqadagi rivojlanish darajasi va davlat budjetiga ta‘sirini tahlil qilish mumkin. Qozog‘iston davlat budjetiga kriptovalyuta sohasidan tushgan daromadlar bo‘yicha yetakchilik qilmoqda (11 mln. AQSH dollari). Bu mamlakatda kriptovalyuta mayningi va savdosi uchun qulay shart-sharoitlar yaratilganligi, shuningdek, yirik kriptovalyuta birjalari faoliyat yuritayotganligi bilan izohlanadi. O‘zbekistonda kriptovalyuta bozori hali rivojlanishning dastlabki bosqichida bo‘lsa-da, davlat budjetiga tushumlar 3,6 mln. AQSh dollarini tashkil etdi. Kriptovalyutalarni tartibga solish bo‘yicha qonunchilik bazasi takomillashtirilishi va sohaga qiziqish ortib borishi tushumlarning yanada oshishiga olib kelishi mumkin.


<sup>17</sup> <https://www.chainalysis.com/> saytlari ma‘lumotlari asosida tadqiqotchi tomonidan shakllantirilgan.

<sup>18</sup> Жантурина А. И др. Цифровые активы в Центральной Азии и на Кавказе., отчет исследовательского центра RISE Research. Ноябрь 2024. hamda ILMA sayti ma‘lumotlari asosida tadqiqotchi tomonidan shakllantirilgan.

O‘zbekistonda raqamli aktivlar kripto-aktivlar sifatida tan olingan bo‘lib, ular qonuniy to‘lov vositasi hisoblanmaydi. 2023-yil 1-yanvardan boshlab O‘zbekiston Respublikasi rezidentlari kripto-tranzaksiyalarni faqat mahalliy kripto-aktiv xizmatlari provayderlari orqali amalga oshirishlari mumkin. Faqat O‘zbekistonda qonuniy ro‘yxatdan o‘tgan va zarur litsenziyalarni olgan tashkilotlar provayderlar sifatida faoliyat yuritishga ruxsat etiladi. Ularning to‘rt xil toifasi mavjud: kripto-birjalar, kripto-do‘konlar, kripto-depozitariylar va mayning pullari. Bugungi kunga kelib, jami litsenziyaga ega ishtirokchilar soni 15 tani tashkil qiladi, shundan 3 ta kripto-birja, 5 ta kripto-depozitariy va 12 ta kripto-do‘konlar faoliyat yuritish litsenziyasiga ega. Hanuzgacha respublikada rasman ro‘yxatdan o‘tgan va litsenziyaga ega mayning firmasi mavjud emas.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 2-sentabrdagi PQ-3926-sonli “O‘zbekiston Respublikasida kripto-birjalar faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorining 2-bandiga muvofiq, “kripto-aktivlar aylanmasi bo‘yicha faoliyatga va kripto-birjalar faoliyatiga qimmatli qog‘ozlar, birjalar va birja faoliyati to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari tatbiq etilmasligi” belgilab qo‘yilgan<sup>19</sup>. Mamlakatda “Uznex” kriptobirjasidan tashqari kripto-aktivlar aylanmasi sohasida biznesni tashkil etishning boshqa shakllari qonunchilikda nazarda tutilmagan, bu kabi xizmatlarning litsenziyasiz amalga oshirilishini nazorat qilishning samarali mexanizmlari ham mavjud emas.

Tahlil davomida mamlakatimizdagi raqamli moliyaviy aktivlarni joriy etish amaliyotining hozirgi holatini o‘rganish davomida tizimni yondashuv asosida raqamli moliyaviy aktivlar ekotizimini shakllantirish maqsadga muvofiq deb topildi (5-rasm). Vaholanki, buning uchun mamlakatda zarur shart-sharoitlar yaratib kelinmoqda.



**5-rasm. O‘zbekistonda raqamli moliyaviy aktivlar ekotizimi<sup>20</sup>**

<sup>19</sup> <https://lex.uz/docs/3891616>

<sup>20</sup> Tadqiqotchi ishlanmasi.

O'rganishlar natijasida raqamli moliyaviy aktivlar ekotizimini shakllantirishda quyidagi asosiy jihatlarni e'tiborga olish lozimligi aniqlandi.

Provayderlar, maynerlar, kriptobirjalar va tartibga soluvchi organlar alohida elementlar sifatida faoliyat yuritib, ular o'rtasidagi o'zaro hamkorlik va ma'lumot almashinuvini yaxshilash maqsadga muvofiq. Kriptobirjalar va provayderlar o'rtasida integratsiya qilish orqali foydalanuvchilarga qulay va xavfsiz xizmatlarni taqdim etadi. Bu yo'nalishdagi faoliyatni yanada kuchaytirish, yangi texnologiyalarni joriy etish va innovatsion loyihalarni moliyalashtirish muhim. Qonunchilik bazasi Prezident farmonlari va ILMA qarorlari bilan cheklangan. Raqamli aktivlar muomalasini tartibga soluvchi alohida qonun qabul qilish, tegishli kodekslar va qonunlarda qo'shimchalar kiritish, soliqqa tortish mexanizmlarini aniqlashtirish, investorlar huquqlarini himoya qilish va boshqa masalalarni hal etish uchun qonunchilik bazasini kengaytirish kerak. Tadqiqotchining fikricha, raqamli aktivlar va raqamli valyutalar amaliyoti bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki va Iqtisodiyot va moliya vazirligining bu sohadagi hamkorligini kuchaytirish maqsadga muvofiq.

Raqamli moliyaviy aktivlarni joriy etish metodologiyasining xorijiy tajribalarini o'rganish asosida tadqiqotchi tomonidan ikki turdagi raqamli moliyaviy aktivlar, xususan, pul majburiyatlari uchun raqamli moliyaviy aktivlar va gibril turlarini, iqtisodiyotdagi strategik korxonalar va yirik korxonalar uchun aylanma mablag'lar va investitsiyalarni jalb qilishning zamonaviy va qo'shimcha manbayi sifatida yaratish va joriy etish taklif qilingan.

Raqamli aktivlarni chiqarish va sotish, keyingi muomalaga kiritish mexanizmini amalga oshirish uchun quyidagi bosqichlar taklif etiladi.

1-bosqich: Blokcheyn texnologiyasidan foydalangan holda platforma yaratish;


2-bosqich: Blokcheyn platformasi ishtirokchilari va qoidalarini ro'yxatdan o'tkazish;

3-bosqich: RMA larni emissiya qilish hamda platformada bitimlar tuzish.

Raqamli moliyaviy aktiv egasiga axborot tizimiga kirish uchun noyob kod beriladi, uning yordamida u aktiv haqida ma'lumot olishi va ularni boshqarishi mumkin. RMA ning muomalasi jarayoni qog'ozda emas, balki raqamli dunyoda axborot tizimiga kiritilgan ma'lumotlar va yozuvlar ko'rinishida sodir bo'ladi.

Raqamli moliyaviy aktiv riskli investitsiya vositasi emas, balki an'anaviy investitsiya vositalarining innovatsion va raqamli shaklidir. Tadqiqotchining fikricha, mazkur soha qonunchiligini yaratish va takomillashtirish va RMA larning amaliyotga joriy etilishi natijasida o'rta muddatli davrda raqamli moliyaviy aktiv bozori an'anaviy moliya va fond bozorlari qatorida salmoqli o'rinni egallaydi.

Raqamli moliyaviy aktivlarni joriy etish bo'yicha taklif etilgan metodologiya raqamli moliyaviy aktivlarni joriy etishning tizimli, ko'p bosqichli jarayonini o'z ichiga oladi (6-rasm). Mazkur jarayon konseptual asoslar, jumladan, milliy strategik maqsadlar, nazariy asoslar, tamoyillar va xalqaro tartibga solish normalariga tayangan holda asosiy bosqichlarni amalga oshirishdan iborat. Joriy etish bosqichlarining muvaffaqiyatli amalga oshirilishi barcha manfaatdor tomonlarning yaqin hamkorligini, tizimlarning ichki va tashqi o'zaro muvofiqligini (interoperabellik) ta'minlashni va maksimal samaradorlikka erishish uchun sinergetik yondashuvni qo'llashni talab qiladi.



**6-rasm. Raqamli moliyaviy aktivlarni joriy etish metodologiyasi<sup>21</sup>**

<sup>21</sup> Tadqiqotchi ishlanmasi.

5-jadvaldagi SWOT-tahlil natijalariga ko'ra, O'zbekistonda raqamli moliyaviy aktivlar bozorini shakllantirish davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash va kriptovalyutalarga qiziqishning ortishi singari ijobiy omillar bilan bir qatorda, infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi va aholining moliyaviy savodxonligi pastligi singari muammolar bilan ham tavsiflanadi. Bu bozorni muvaffaqiyatli rivojlantirish uchun investitsiyalarni jalb qilish va moliyaviy operatsiyalar samaradorligini oshirish imkoniyatlaridan foydalanish, shu bilan birga, bozorning o'zgaruvchanligi va kiberxavfsizlik bilan bog'liq xavflarni kamaytirish choralarini ko'rish talab etiladi.

## 5-jadval

### Raqamli moliyaviy aktivlar bozorini shakllantirishning SWOT-tahlili<sup>22</sup>

<b>Kuchli tomonlari</b>	<b>Zaif tomonlari</b>
Raqamli iqtisodiyot va RMA bozorini rivojlantirishga davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash Malakali IT va moliya mutaxassislari mavjudligi Kriptovalyutalar va blokcheyn texnologiyalariga qiziqish tobora ortib borishi Raqamli moliyaviy aktivlar bozori ishtirokchilari uchun imtiyozli soliq rejimlari	Raqamli moliyaviy aktivlar bozori infratuzilmasining rivojlanish darajasi dastlabki bosqichda Aholining moliyaviy savodxonligi pastligi Raqamli moliyaviy aktivlar sohasidagi startaplar va korxonalar uchun moliyalashtirish imkoniyatlari cheklanganligi (xarajatlar yuqoriligi) RMA bozorini tartibga solish tajribasi yetarli emasligi
<b>Imkoniyatlar</b>	<b>Tahdidlar</b>
Xorijiy investitsiyalarni jalb qilish Moliyalashtirish yangi manbalari shakllanishi Yangi ish o'rinlarini yaratish Moliyaviy operatsiyalar samaradorligi va shaffofligini oshirish Yangi moliyaviy instrumentlar va mahsulotlarni rivojlantirish	Kriptovalyuta bozorining o'zgaruvchanligi Kiberxavflar (texnologik tizimga bo'ladigan hujumlar) Qonunchilikdagi o'zgarishlar (tartibga solishning qat'iyashtirilishi) Pulning noqonuniy harakati va terrorizmni moliyalashtirish

Infratuzilmani rivojlantirish va aholining moliyaviy savodxonligini oshirishga alohida e'tibor qaratish lozim, bu esa raqamli moliyaviy aktivlar bozorining barqaror va xavfsiz rivojlanishiga xizmat qiladi.

Raqamli moliyaviy aktivlar bozoriga ta'sir etuvchi tashqi omillar PEST-tahlili quyidagi uslub asosida amalga oshirilgan: 1. Tashqi muhit omillari haqida ma'lumotlar to'plandi. 2. Aniqlangan omillarning ijobiy yoki salbiy ta'siri aniqlandi. 3. Har bir omilning muhimlik darajasi (1dan 5gacha) va ta'sir etish ehtimolligi (0 %dan 100 %gacha) baholandi. 4. Olingan natijalar har bir guruh bo'yicha jamlandi.

## 6-jadval


### Raqamli moliyaviy aktivlar bozorini shakllantirishda tashqi omillarning ta'siri<sup>23</sup>

<b>Omillar</b>	<b>Ta'siri (+/-)</b>
Siyosiy (5)	+7
Iqtisodiy (7)	-3,1
Ijtimoiy (7)	+8,2
Texnologik (5)	+16
Yakuniy natija	+28,1

<sup>22</sup> Tadqiqotchi ishlanmasi.

<sup>23</sup> Tadqiqotchi ishlanmasi.

PEST-tahlilning yakuniy natijasi +28,1 ni tashkil etadi. Bu sezilarli darajadagi ijobiy ko‘rsatkich bo‘lib, tashqi omillarning umumiy (yig‘indi) ta‘siri raqamli moliyaviy aktivlar bozorining shakllanishi va rivojlanishi uchun qulay ekanligini ko‘rsatadi. Umuman, PEST-tahlil natijalari ko‘rsatadiki, chegaralovchi iqtisodiy omillar mavjudligiga qaramay, texnologik, ijtimoiy va siyosiy jihatlarning ustunlik qiluvchi ijobiy ta‘siri raqamli moliyaviy aktivlar bozorining muvaffaqiyatli shakllanishi va rivojlanishi uchun mustahkam asos yaratadi. Asosiy sa‘y-harakatlar, iqtisodiy xatarlarni yumshatish va texnologik taraqqiyot hamda jamoatchilik tomonidan qo‘llab-quvvatlash taqdim etayotgan afzalliklardan yanada kengroq foydalanishga yo‘naltirilishi kerak.



**7-rasm. RMAIarni joriy etish sharoitida O‘zbekiston moliya-bank tizimi xususiyatlari<sup>24</sup>**

Tahlillar natijasida O‘zbekiston moliya-bank tizimining raqamli moliyaviy aktivlarni joriy etish nuqtai nazaridan joriy holati bo‘yicha quyidagi umumiy xulosalar olindi (7-rasm).

O‘zbekiston bank-moliya tizimi faol raqamli transformatsiya bosqichida bo‘lib, bu raqamli moliyaviy aktivlarni joriy etish uchun istiqbolli hisoblanadi. Tadqiqotchining fikricha, bu jarayon moliyaviy barqarorlikni ta‘minlash, to‘lov infratuzilmasini modernizatsiya qilish va an‘anaviy moliyaviy vositalarning ahamiyatini hisobga olish bo‘yicha vazifalarni hal qilish zarurati bilan bog‘liq.

Yuridik va jismoniy shaxslar o‘rtasida masofaviy bank xizmatlari tizimlaridan foydalanuvchilar sonining barqaror o‘sishi hamda an‘anaviy institutlar bilan muvaffaqiyatli raqobatlashayotgan faol raqamli paydo bo‘lishi aholi va biznesning raqamli moliyaviy innovatsiyalardan foydalanish va ularni qabul qilishga yuqori darajada tayyor ekanligidan dalolat beradi. RMAning qulayligi, xavfsizligi, afzalliklari va mavjud moliyaviy ekotizimga samarali integratsiyalashuvi sharoitida, ularni qabul qilish va tarqatish uchun qulay imkoniyatlar yaratadi.

Dissertatsiyaning “**O‘zbekistonda raqamli valyutani joriy etishning uslubiy asoslari**” deb nomlangan uchinchi bobida Markaziy bank raqamli valyutasini joriy etishning xorij amaliyoti o‘rganilib, Markaziy bank raqamli valyutasi modeli va dizaynini ishlab chiqish uslubiyoti hamda uning pul tizimiga ta‘siri yo‘nalishlari tahlil qilingan.

<sup>24</sup> Tadqiqotchi tomonidan shakllantirilgan.

7-jadvalda o'rganishlar natijasida MBRVni joriy etishning asosiy motivlari ajratilib, ularga nisbatan mualliflik toifasini keltirilgan. Bu yondashuv MBRVni joriy etishdagi turli mamlakatlarning maqsadlari va ustuvorliklarini to'liqroq tushunishga yordam beradi. Motivlar orasida makroiqtisodiy, ya'ni, pul-kredit siyosatining samaradorligini oshirish, moliyaviy barqarorlikni ta'minlash, to'lovlar samaradorligini yaxshilash, mikroiqtisodiy, xususan, moliyaviy inklyuziyani oshirish va xavfsizlikni ta'minlash motivlari alohida o'rin tutadi. Tadqiqotchining fikricha, kelgusida O'zbekistonda markaziy bank raqamli valyutasini joriy etishning dastlabki bosqichlarida aynan taklif qilinayotgan guruhlash asosida asosiy motivlarni belgilab olish maqsadga muvofiq.

## 7-jadval

### Markaziy bank raqamli valyutalarini joriy etish motivlari: qiyosiy tahlil<sup>25</sup>

Motivlar toifasi (muallif taklifi)	Xalqaro hisob-kitoblar banki (XHB)	Singh va boshqalar (2022)	Skolkovo ITM mutaxassisleri
<b>Makroiqtisodiy motivlar</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>Moliyaviy barqarorlik</li> <li>Pul-kredit siyosatining samarali amalga oshirilishi</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>Moliyaviy barqarorlikka oid motivlar</li> <li>Pul-kredit siyosatiga oid motivlar</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>Moliya va bank xizmatlari bozorida raqobatni kuchaytirish</li> <li>Maqsadli guruhlar uchun zarur xizmat turlarini yaratish</li> <li>Moliya tizimi barqarorligini oshirish</li> <li>bank tizimida shoklarning oldini olish</li> <li>YaIM hajmini oshirish</li> <li>Yashirin iqtisodiyot ulushini kamaytirish</li> </ul>
<b>Mikroiqtisodiy motivlar</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>Moliyaviy inklyuzivlik</li> <li>To'lovlar samaradorligi (transchegaraviy)</li> <li>To'lovlar samaradorligi (ichki)</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>To'lovga oid motivlar</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>O'rtacha chekni oshirish</li> <li>Aholi uchun moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatini oshirish</li> <li>To'lovlar tezligini oshirish, qiymatni pasaytirish va shaffofligini oshirish (ham ichki, ham transchegaraviy)</li> </ul>
<b>Texnologik va institutsional motivlar</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>To'lovlar xavfsizligi /ishonchliligi</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>Xavfsizlik motivlari</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>To'lov tizimining xavfsizligi va ishonchliligini ta'minlash, kibertaxdidlardan himoya qilish</li> <li>Moliyaviy sektorda innovatsiyalarni rag'batlantirish</li> <li>Xalqaro standartlarni shakllantirishda ishtirok etish va transchegaraviy to'lovlarni rivojlantirish</li> <li>Pul tizimi ustidan nazoratni ta'minlash</li> <li>Xususiy raqamli valyutalardan keluvchi potensial tahdidlarga qarshilik ko'rsatish</li> </ul>

8-jadvalda tadqiqotlar guruhlar bo'yicha tizimlashtirilib, raqamli valyutaning iqtisodiy tizimga ta'siri bo'yicha xulosalarni yanada vizual ko'rsatish uchun rang sxemasiga muvofiq belgilab o'tilgan. Jadvalda ko'rib chiqilayotgan tadqiqotlarga ko'ra, agar ma'lum shartlar bajarilsa, Markaziy bankning raqamli valyutasini joriy etish ijobiy natijalarga olib keladi. MBRV bo'yicha tadqiqotlarning chuqur tahlili PRISMA (Tizimli tahlil va meta-tahlillar uchun afzal hisobot elementlari) uslubi asosida olib borilgan. PRISMA metodi tizimli tahlillarni o'tkazish uchun tarkibiy yondashuvni, hisobotlarning shaffofligi va to'liqligini ta'minlaydi.

<sup>25</sup> O'rganilgan tadqiqotlarni qiyosiy tahlil qilish asosida tadqiqotchi tomonidan ishlab chiqilgan.


Markaziy bank raqamli valyutasining iqtisodiyotga ta'sirini baholash<sup>26</sup>

Mualliflar	Tadqiqot natijalari	Ta'siri (+/-/0)
<i>Markaziy bankning raqamli valyutasining butun iqtisodiy tizimga ta'siri</i>		
Sinelnikova-Murileva (2020)	agar u to'g'ri ishlab chiqilgan bo'lsa, u pul-kredit organlarining yangi samarali vositasiga aylanadi	+
Kallen (2021)	Yevrozonada MBRVni joriy qilish iqtisodiy jihatdan samarasiz bo'lib, to'lov tizimlarining rivojlanishiga to'sqinlik qilishi va moliyaviy inklyuziyaga to'sqinlik qilishi mumkin	-
Vu va Chen (2021)	DC/EP o'rnini bosishning bank depozitlariga ta'siri cheklangan, o'ziga xos ta'sir yesa iqtisodiy o'sish sur'atini 0,15 % ga oshirishi mumkin va umumiy iqtisodiy samara ijobiydir	+
Li, Yan va Vang (2021)	Tegishli MBRV dizayni Markaziy banklarga pul oqimlarini boshqarish, butun yukni ko'tarmasdan va haddan tashqari markazlashtirilgan xatarlarga duch kelmasdan monitoring va nazoratga e'tibor qaratish imkonini beradi va kelajakda raqamli iqtisodiyotning asosiy vositasiga aylanadi	+
Kirkbi (2018)	Markaziy bankning raqamli fiat valyutasini chiqarishi naqd pul va boshqa pul shakllarini almashtiradi, ammo agar u Markaziy bank butun pul massasi uchun javobgar bo'lsa, bu yon ta'sirga ega bo'lishi mumkin.	+
Bindseyl (2019)	MBRVga qarshi ikkita asosiy dalil, banklarni tarkibiy ajratish xavfi va inqirozli vaziyatlarda banklarga tizimli reydni osonlashtirish xavfi	-
Kukierman (2020)	Xususiy sektorga Markaziy bankdagi depozitlardan foydalanish imkoniyatini beruvchi tubdan amalga oshirish tor bank tizimini yaratishga olib kelishi va uzoq muddatli istiqbolda depozitlarni sug'urtalashga ehtiyojni keskin kamaytirishi mumkin	-
Belke va Beretta (2020)	Markaziy bankning raqamli valyutasini joriy yetish bilan bog'liq yuqori xavflar mavjud bo'lib, ular naqd pul uchun ideal o'rinbosar sifatida qaralmasligi kerak	-
<i>Markaziy bank raqamli valyutasining pul-kredit siyosati samaradorligiga ta'siri</i>		
Pfister (2017)	agar MBRV emissiyasi valyutani chiqarishning amaldagi qoidalariga muvofiq amalga oshirilsa, u holda kreditlarni taqsimlashda banklarning roli katta o'zgarishlarga duch kelmaydi	0
Mening va b. (2018)	pul-kredit siyosati Markaziy bank pullarining narxini yoki miqdorini o'zgartirib, hozirgi kabi harakat qilishi mumkin va mazkur ta'sir siyosat instrumentlaridagi o'zgarish bilan yanada kuchayishi mumkin	+
Brunnermayer va Nipelt (2019)	MBRV moliyaviy barqarorlikka putur yetkazmasligini isbotladi	+
Andolfatto (2021)	Markaziy bankning raqamli valyutasini joriy yetish kredit faoliyatiga zararli ta'sir ko'rsatmaydi va hatto unga hissa qo'shishi mumkin	+
Davudalxosseyini (2021)	Agar Markaziy bank raqamli valyutasini joriy etish qiymati maqbul bo'lsa, unda bu yanada samarali taqsimotdir	+
Monne (2019)	MBRV bank xavfining pasayishiga, ishlab chiqarish va boylikning oshishiga olib kelishi mumkin	+
Barrdear va Kumxof (2021)	MBRV bilan DSGE modeli tuzdilar va MBRV emissiyasi YaIMni 3 %ga oshirishi mumkinligini hisobladilar	+
Brodhent (2016)	"tor bank" fenomeni, MBRV joriy etilgandan so'ng, tijorat banklarining depozitlari keng miqyosda Markaziy bankka o'tadi	-
Raxman (2018)	Agar raqamli valyutalar davlat tomonidan chiqarilgan fiat pullar bilan raqobatlashsa, Fridman qoidasi ijtimoiy jihatdan samarasiz bo'ladi	-
Raskin, YerMak (2018)	MBRV bank tizimiga keng qamrovli ta'sir ko'rsatishi, aholi va Markaziy bank o'rtasidagi munosabatlarni yopishi va aholining ba'zi tijorat banklarida omonatlarni saqlashga talabini kamaytirishi mumkin	-
Berg, Nilsen (2017)	MBRV mavjud to'lov yechimlari samaradorligini oshirmaydi	-
Keyster va Sanches (2019)	MBRV shuningdek, bank depozitlarini almashtirishi, banklarni moliyalashtirish xarajatlarini oshirishi va investitsiyalarni kamaytirishi mumkin, garchi umuman olganda, MBRV joriy etilishi ijtimoiy farovonlikni yaxshilaydi	+
E.Xoshimov (2022)	markaziy bank raqamli valyutasining joriy etilishi nafaqat pul va to'lov tizimi ishtirokchilari uchun, balki monetar organ uchun ham qo'shimcha moliyaviy va tizimli risklarni yuzaga keltirishi mumkin	-

<sup>26</sup> Tadqiqotlarni qiyosiy tahlil qilish asosida tadqiqotchi tomonidan ishlab chiqilgan.

Raqamli valyutani joriy etishning iqtisodiyotga ta'siri 8-rasmda aks ettirilgan. Naqd pulning raqamli ekvivalenti bo'lib, raqamli valyuta pul massasining tuzilishini o'zgartiradi va raqamli valyutaga o'tish tufayli M0 (naqd) pul agregati hajmi kamayadi. Markaziy bank raqamli valyutasining bank tizimiga ta'sirini asosan salbiy yo'nalishda ko'rib chiqish mumkin. MBRVning paydo bo'lishi banklarning aktivlari va passivlari tarkibini o'zgartirishi mumkin, chunki depozitlarning bir qismi raqamli shaklga o'tkazilishi mumkin, bu tijorat bankining balansini boshqarishni qayta ko'rib chiqishni talab qiladi va bank likvidligi pasayishiga olib keladi.

Shunga mos ravishda, bu kredit resurslarining narxiga ta'sir qiladi, chunki iqtisodiyotdagi likvidlikning umumiy darajasi o'zgaradi, bu esa o'z navbatida, kredit stavkalariga ta'sir qiladi. Xuddi shunday, depozitlar tarkibidagi o'zgarishlar va MBRVning joriy qilinishi depozit stavkalariga ta'sir qiladi. Raqamli valyuta mavjud bo'lganda, an'anaviy depozitlar bo'yicha foiz stavkalarini kamaytirish mumkin, chunki mablag'lar uchun raqobat kuchayadi.



**8-rasm. Markaziy bank raqamli valyutasining asosiy ta'sir yo'nalishlari<sup>27</sup>**

Tadqiqotchining fikricha, MBRVning joriy etilishi naqd puldan naqdsiz va elektron to'lovlarga o'tishni jadallashtirish, ularning xavfsizligini oshirish, budget mablag'larining maqsadli sarflanishi ustidan nazoratni kuchaytirish, transchegaraviy o'tkazmalarni tezlashtirish imkonini beradi.

Raqamli valyutaning pul-kredit siyosatini o'tkazish mexanizmiga ta'sirini aniqlash uchun uning pul aylanish tezligiga, kredit va foiz kanaliga, shuningdek, aholi omonatlarining mumkin bo'lgan chiqib ketishiga ta'sirini baholash kerak. Buning uchun raqamli valyutaning pul muomalasi tezligiga ta'sirini o'rganish uchun quyidagi model taklif etiladi:

$$V_t = C + \alpha C_r + \beta E_c + \gamma F_e + \varphi i + \varepsilon, \quad (1)$$

bu yerda:  $V_t$  - pul muomalasining tezligi (pul agregatlari bo'yicha),  $C_r$  - naqd pul darajasi,  $E_c$  - elektron pul darajasi,  $F_e$  - raqamli moliya darajasi,  $i$  - foiz stavkasi;  $\varepsilon$  - tasodifiy xatolik.

<sup>27</sup> Tadqiqotchi tomonidan shakllantirilgan.

Mazkur model qo‘shimcha o‘zgaruvchilarni hisobga olgan holda pul va raqamli valyutaning aylanish tezligining o‘zaro bog‘liqligini o‘rganish uchun xorijiy ilmiy tadqiqotlarda mavjud modelning modifikatsiyasini birlashtiradi. Uzoq muddatli tahlil qilishda kointegratsiya (Engle-Granger) testidan, qisqa muddatli nomutanosiblikni tahlil qilishda esa birlik ildiz testidan (Unit-root test) va xatolarni tuzatish modelidan (ECM) foydalanish maqsadga muvofiq.

Iqtisodiyotda bunday o‘zgaruvchilarning o‘zaro bog‘liqligini aniqlash maqsadida olib borilgan hisoblashlar natijasi ko‘rsatdiki, olinayotgan davr qisqa bo‘lganligi sababli ko‘rsatkichlarning statistik bog‘liqliklari past darajada. Vaqt qatorlari 2016-2024-yillarning choraklik ma’lumotlari asosida shakllantirilgan.

Olingan korrelyatsiya bog‘liqliklari ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi natijalar pul agregatlari aylanish tezligi va naqd pullar, elektron pullar miqdori o‘rtasida nostandart bog‘liqlik mavjudligini ko‘rsatmoqda. Qatorlarning statsionarlilik darajasini tekshirgan holda ular birinchi darajali statsionarlikka egaligi natijasi olindi. Shu asosda barcha ko‘rsatkichlar logarifmlarda hisoblandi va EKKU yordamida quyidagi regression bog‘liqliklar olindi.

$$L_V0 = -1,0277 \cdot L_{C_R} - 0,0884 \cdot L_{E_R} + 0,1725 \cdot L_I - 0,3406 \quad (2)$$

$$L_V1 = -0,5630 \cdot L_{C_R} - 0,5540 \cdot L_{E_R} + 0,1816 \cdot L_I - 1,0646 \quad (3)$$

$$L_V2 = -2,1026 \cdot L_{C_R} + 0,0163 \cdot L_{E_R} - 6,7098 \cdot L_{F_E} + 0,2540 \cdot L_I - 5,2423 \quad (4)$$

Olingan dastlabki natijalar ko‘rsatmoqdaki, naqd pullar ulushining pul massasida ortib borishi naqd pullar aylanish tezligi kamayishiga olib keladi. Shu bilan bir qatorda,  $V_1$ ga uning salbiy ta’siri 0,1 foiz ehtimollik bilan tasdiqlanmoqda,  $V_2$ ga esa umuman ta’sir ko‘rsatmaydi, ya’ni bu yerda statistik koeffitsiyentlar ahamiyatsiz hisoblanmoqda. Elektron pullarning ulushi ortishi ham  $V_1$  pul tezligining 0,07 ehtimollik darajasida pasayishini ta’minlaydi.


Dastlabki tahlillardan shunday xulosa qilish mumkinki, raqamli valyutaning pul-kredit siyosatini o‘tkazish mexanizmiga ta’sirini baholashda pul agregatlari bo‘yicha pul muomalasining tezligi ( $V_t = 0,34$ ), naqd pul darajasi ( $C_r = 0,21$ ), elektron pul darajasi ( $E_c = 0,27$ ), raqamli moliya darajasi ( $F_e = 0,18$ ) o‘rtasidagi maqbul nisbatlarni ta’minlash maqsadga muvofiq. Shu bilan bir qatorda, istiqbolda raqamli valyutani joriy etilishida yetarli empirik ma’lumotlarni ta’minlash asosida raqamli valyutaning iqtisodiyotga ta’sirining makroiqtisodiy oqibatlarini yanada chuqur o‘rganish uchun Markaziy bankning raqamli valyutasining ta’sirini hisobga olgan holda DSGE modelini ishlab chiqish taklif etilgan.

Dissertatsiya ishining to‘rtinchi bobi **“O‘zbekistonda raqamli moliyaviy aktivlarni joriy etish amaliyotini takomillashtirish”**da raqamli moliyaviy aktivlarni joriy etishning istiqbolli yo‘nalishlari, markaziy bank raqamli valyutasining iqtisodiyotga ta’sirining empirik tahlili amalga oshirilgan bo‘lib, tahlillar natijasida raqamli moliyaviy aktivlarni joriy etish metodologiyasini takomillashtirish yo‘nalishlari o‘rganilgan.

Naqd pul bank tizimining muhim elementi bo‘lib qolmoqda, ammo uning roli raqamlashtirish jarayonini hisobga olgan holda rivojlanmoqda. Agar 2013-yil boshida muomaladagi naqd pulning ulushi qariyb 23,6 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 10 yildan so‘ng u taxminan 2 foizga kamayib, 21,5 foizni tashkil etgan (9-rasm).

Markaziy bank ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yil yakuniga ko'ra, O'zbekistonda naqd pulning umumiy pul massasidagi ulushi 2022-yilda o'sganidan keyin 19,24 foizgacha kamaygan. Kartalarga tushgan mablag'lar tobora kamayib bormoqda - so'nggi besh yil ichida bu ko'rsatkich 32 foizdan 24 foizga kamaydi.

Markaziy bank raqamli valyutasining muomalaga kiritilishi pullarning uchinchi shakliga muqobil sifatida pul-kredit siyosati va moliyaviy barqarorlik siyosati uchun jiddiy oqibatlariga olib kelishi mumkin. Chunki, bunday depozitlarning Markaziy bankning raqamli valyutalari bilan almashtirilishi butun bank tizimi balansining kamayishi va uning tarkibi jiddiy o'zgarishiga olib kelishi mumkin<sup>28</sup>. Bunday sharoitda tijorat banklarining balansidagi depozitlarni Markaziy bankning raqamli valyutalari siqib chiqarishi mumkin.



**9-rasm. 2018-2024-yillarda iqtisodiyotdagi naqd pul hajmining M2 pul massasidagi ulushi dinamikasi, %da<sup>29</sup>**

Bu holat O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki uchun ham tashvishli holatni yuzaga keltirishi mumkin. Chunki, kengaytirilgan pul agregati hajmida va mamlakat tijorat banklari passivlarining umumiy hajmida tranzaksion depozitlar yuqori salmoqni egallaydi.

### 9-jadval

**O'zbekiston Respublikasida pul massasi hajmida va tijorat banklari passivlarining umumiy hajmida depozitlarning salmog'i, foizda<sup>30</sup>**

Ko'rsatkichlar	Yillar				
	31.12.2020	31.12.2021	31.12.2022	31.12.2023	31.12.2024
M2 pul agregati hajmida milliy valyutadagi depozitlarning salmog'i	46,9	49,0	51,1	56,0	75,8
Tijorat banklari passivlari hajmida depozitlar salmog'i	37,3	41,8	45,4	43,5	47,2

9-jadvalda keltirilgan ma'lumotlardan yaqqol ko'rinadiki, respublikamizda 2020-2024-yillarda milliy valyutadagi depozitlarning M2 pul agregati hajmida salmog'i yuqori bo'lgan. Bundan tashqari, bu ko'rsatkich 2024-yilda 2020-yilga nisbatan yuqori sur'atda o'sgan. 2020-2024-yillarda depozitlarning tijorat banklari passivlarining umumiy hajmidagi salmog'i yuqori bo'lgan.

<sup>28</sup> mukozobova\_a\_v\_vozmo\_jnosti-i-riski-prove\_deniya-transgranichn\_yh-raschetov-s-prime\_neniem-cifrovyyh-valy\_ut-mejdu-strana.pdf

<sup>29</sup> O'zR Markaziy banki sayti ma'lumotlari asosida tadqiqotchi tomonidan shakllantirildi.

<sup>30</sup> Jadval tadqiqotchi tomonidan O'z bekiston Respublikasi Markaziy bankining statistik ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Biroq soha mutaxassislarining fikricha, O‘zbekiston bozori hali ham tarqoq to‘lov tizimlari bosqichida turibdi. Keyingi bosqichga o‘tishning maqsadga muvofiqligi moliyaviy oqimlarni “to‘g‘rilash” zarurati bilan belgilanadi. Hozirgi kunda respublikada tovar va xizmatlar uchun “to‘lovlar” ning muhim qismini xaridordan sotuvchiga P2P o‘tkazmalari tashkil etadi, bu esa “kulrang” tijoratning yanada oshib borishiga hissa qo‘shadi<sup>31</sup>.

O‘zbekistonda bank tizimining faol raqamlashuvi (masofaviy xizmatlar va raqamli to‘lovlarning o‘sishi) Markaziy bank raqamli valyutasi uchun zamin yaratmoqda, biroq an‘anaviy moliyaviy vositalar (naqd pul, depozitlar) hamon muhimligini saqlab qolmoqda. MBRVning joriy etilishi bank tizimini jiddiy o‘zgartirishi, tijorat banklaridan depozitlarning chiqib ketishi orqali moliyaviy barqarorlik va pul-kredit siyosatiga ta’sir etishi mumkin, bu esa ehtiyotkorlik bilan tartiblash yondashuvini va xatarlarni kamaytirish choralarini talab qiladi. Shu bilan birga, P2P-o‘tkazmalarining yuqoriligi “xufiyona” iqtisodiyotni kuchaytirayotgan bir paytda, to‘g‘ri tartibga solingan va integratsiyalangan markaziy bank raqamli valyutasi moliyaviy oqimlar shaffofligini oshirishga xizmat qilishi mumkin.

Dissertatsiya ishining mazkur qismida asosiy empirik tahlil uchun nazariy-metodologik asosni yaratish vazifasi belgilandi va tadqiqotchi tomonidan pul aylanmasining har bir tarkibiy qismi bo‘lgan naqd va naqdsiz pullarning real yalpi ichki mahsulot dinamikasiga o‘ziga xos ta’sirini miqdoriy jihatdan aniqlash imkonini beruvchi ko‘p omilli balansli ekonometrik model ishlab chiqildi. Bunda balansli ekonometrik modelning asosi sifatida pulning turli shakllari, jumladan, Markaziy bank yangi raqamli valyutasining real yalpi ichki mahsulotga ta’sirini o‘rganish uchun dastlab Kouplendning moliyaviy manbalar oqimlari tahlili doirasida ishlab chiqilgan bo‘lib, keyinchalik Tobin, shuningdek, Godli va Lavua tomonidan rivojlantirilgan hamda alohida yondashuv sifatida shakllangan<sup>32</sup> “oqimlar-zaxiralar” (Stock-Flow Consistent, SFC) modeliga asoslangan yondashuvdan foydalanildi. Balansli ekonometrik modelning nazariy asosi sifatida pullarning iqtisodiy faollikka ta’sirining transmission mexanizmlarini ko‘rsatuvchi zamonaviy monetar nazariyalar, shuningdek, to‘lov tizimi samaradorligi va moliyaviy vositachilik rolini tadqiq etuvchi konsepsiyalar xizmat qiladi. Mazkur modelda naqd va naqdsiz pullarning hissasini alohida baholashga e’tibor qaratiladi, bu ularning makroiqtisodiy samaradorligidagi ehtimoliy farqlarni aniqlash imkonini beradi. Modelning spetsifikatsiyasi quyidagicha ifodalanadi:

Asosiy balansli ekonometrik model tenglamasi:

$$GDP_t^{real} = \alpha_0 + \alpha_1 Cash_t^{real} + \alpha_2 Noncash_t^{real} + \alpha_3 G_t + \alpha_4 IT_t^{real} + \varepsilon_t, \quad (5)$$

bu yerda:  $GDP_t^{real}$  –  $t$  davridagi real yalpi ichki mahsulot;  $Cash_t^{real}$  –  $t$  davridagi muomaladagi naqd pullarning real hajmi;  $Noncash_t^{real}$  –  $t$  davridagi muomaladagi

<sup>31</sup> Журнал ПЛАС №7-8 (303-304). Платежный рынок Узбекистана: тренды и перспективы <https://plusworld.ru/journal/2023/plus-7-2023/platzhnyy-rynok-uzbekistana-trendy-i-perspektivy/>

<sup>32</sup> Tobin, James. 1982. “Money and Finance in the Macroeconomic Process.” *Journal of Money, Credit and Banking* 14(2): 171–204; Godley, Wynne, and Marc Lavoie. 2003. “Two-Country Stock-Flow-Consistent Macroeconomics Using a Closed Model Within a Dollar Exchange Regime.” Cambridge Endowment for Research in Finance, Working Paper No. 10. Cambridge, UK: Cambridge Endowment for Research in Finance. Available at: <http://www.dspace.cam.ac.uk/bitstream/1810/225206/1/wp10.pdf>.

naqdsiz pullarning real hajmi;  $G_t$  – davlat xarajatlari;  $IT_t^{real}$  – YaIMga boshqa muhim omillar ta'sirini aks ettiruvchi boshqa nazorat o'zgaruvchilari vektori (masalan, texnologik rivojlanish darajasi, tashqi iqtisodiy konyunktura);  $\alpha_0, \alpha_1, \alpha_2, \alpha_3, \alpha_4$  – baholanadigan ta'sir koeffitsiyentlari;  $\varepsilon_t$  – modelning stoxastik xatoligi.

Shu bilan birga, modelning va vaqtli qatorlarning xususiyatlarini hisobga olgan holda, mazkur modelning ikki tomonini natural logarifmlarda olish maqsadga muvofiq:

$$\text{Log\_GDP}_t^{real} = \beta_0 + \beta_1 \text{Log\_Cash}_t^{real} + \beta_2 \text{Log\_Noncash}_t^{real} + \beta_3 \text{Log}_{G_t} + \beta_4 \text{Log\_IT}_t^{real} + \theta_t, \quad (6)$$

bu yerda:  $\beta_0, \beta_1, \beta_2, \beta_3, \beta_4$  – baholanadigan elastiklik koeffitsiyentlari;  $\theta_t$  – modelning stoxastik xatoligi.

Tahlilda naqd va naqdsiz pullarning iqtisodiy o'sishga, xususan, YaIMga ta'sirini baholashda ular har birining ta'siri alohida modellashtirilgan. Dastlab, naqd pullarning YaIM o'zgarishiga ta'siri modeli baholandi. Ekonometrik hisob-kitoblar E-views dasturiy paketi yordamida amalga oshirilgan.

Modelni baholashda  $\text{Log}_{\text{Cash}_t}^{real}$  o'zgaruvchisining koeffitsiyenti 1,208972 ga teng bo'lib, bu naqd pullar hajmining real YaIMga ijobiy va sezilarli ta'sirini ko'rsatadi. Naqd pul mablag'larining 1 %ga oshishi YaIM hajmining taxminan 1,21 %ga o'sishiga olib keladi. Bu tadqiqot davrida iqtisodiy o'sish uchun naqd pullarning muhim ahamiyatini ko'rsatadi. Biroq Darbin-Uotson statistikasining past qiymati (0,781748) qoldiqlarda avtokorrelyatsiya mavjudligidan dalolat beradi, bu modelning sifatini pasaytiradi. Determinatsiya koeffitsiyenti  $R^2$  ning qiymati 0,890678 ga teng, bu modelning real YaIMning taxminan 89 % o'zgarishini tushuntirishini anglatadi, bu yetarlicha yuqori ko'rsatkich hisoblanadi. Kuchli korrelyatsiyaga qaramay, xulosalarning ishonchliligini oshirish uchun avtokorrelyatsiyani bartaraf etish kerak. Qoldiqlardagi avtokorrelyatsiyani bartaraf etish uchun modelga  $\text{Log\_GDP}_t^{real}$  bog'liq o'zgaruvchining 2- va 3-tartibli lagli qiymatlarini kiritib, regressiya tenglamasining yanada sifatli natijalarini olish mumkin.

$$\text{Log\_GDP}_t^{real} = \underset{[0.0002]}{0.84} \text{Log}_{\text{Cash}_t}^{real} + \underset{[0.021]}{0.37} \text{Log\_Cash}_{t-2}^{real} + \underset{[0.767]}{0.05} \text{Log}_{\text{Cash}_{t-3}}^{real} - \underset{[0.075]}{1.51} \quad (7)$$

$$R^2 - 0,920039, \text{Adj. } R^2 - 0,911154, F\text{-stat} - 103,5544, \text{Prob}(F\text{-statistic}) - 0,000000, AIC - -0.844370, SC - -0,659340, Hannan-Quinn - 0,784055, DW\text{-stat} - 1,524857$$

$\text{Log}_{\text{Cash}_t}^{real}$  o'zgaruvchisining koeffitsiyenti ham musbat va bir foizli darajada ahamiyatlidir, koeffitsiyenti 0,844680 ga kamaydi, bu laglar hisobga olingandan keyin naqd pullarning YaIMga o'rtacha ta'sirini ko'rsatadi. Naqd pul hajmining 1 %ga oshishi endi YaIMning 0,84 %ga o'sishi bilan bog'liq.

Ikkinchi modelni eng kichik kvadratlar usuli bilan baholaymiz, bu yerda naqd pulsiz pul aylanmasining real YaIMning o'sishiga ta'siri aks ettiriladi.

$$\text{Log\_GDP}_t^{real} = \underset{[0.0000]}{1.04} \text{Log\_Noncash}_t^{real} - \underset{[0.994]}{0.004} \quad (8)$$

$$R^2 - 0,937766, \text{Adj. } R^2 - 0,935822, F\text{-stat} - 482,1913, \text{Prob}(F\text{-statistic}) - 0,000000, AIC - -1,077300, SC - -0,987514, Hannan-Quinn - -1,046681, DW\text{-stat} - 1,772251.$$

Ikkinchi model (8), ya'ni naqdsiz pul aylanmasining real YaIMga ta'sirini baholovchi model, naqd pulsiz hisob-kitoblarning iqtisodiy o'sishga sezilarli va ijobiy ta'sirini ko'rsatadi.  $\text{Log\_Noncash}_t^{\text{real}}$  o'zgaruvchisining koeffitsiyenti (naqdsiz pul aylanmasining logarifmi) 1,04 ga teng, bu boshqa shartlar teng bo'lganda, naqdsiz pul aylanmasi 1 %ga oshganda, real YaIM 1,04 %ga oshadi, deganidir. Bu natija naqd pulsiz operatsiyalar hajmi va iqtisodiy o'sish o'rtasida kuchli ijobiy korrelyatsiya borligidan dalolat beradi.  $\text{Log\_Noncash}_t^{\text{real}}$  koeffitsiyenti uchun t-statistikaning qiymati 21,96 ga teng, bu o'zgaruvchining yuqori statistikali ahamiyatini ko'rsatadi, chunki  $p$ -qiymat 0,0000 ga teng. Bu naqd pulsiz hisob-kitoblarning YaIMga ta'siri sezilarli va tasodifiy emasligini tasdiqlaydi.

Olingan natijalar naqdsiz pul aylanmasining o'sishi real YaIMning o'sishiga sezilarli darajada ijobiy ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi. Naqd pulsiz hisob-kitoblarning iqtisodiy o'sishga qo'shgan hissasi katta va naqd pulsiz infratuzilmani rivojlantirish iqtisodiy o'sish sur'atlarini oshirishga yordam berishi mumkin. Hisob-kitoblarga ko'ra, qisqa muddatda raqamli valyutani joriy etish samarali emas, aniqrog'i, uning barcha afzalliklarini amalga oshirishga imkon bermasligi aniqlandi. Shu sababli, raqamli valyutani joriy etish naqd pulsiz to'lovlarning YaIMga ijobiy ta'sirini bosqichma-bosqich oshirish bilan o'rta va uzoq muddatli istiqbolga qaratilgan bo'lishi kerak.

Muomaladagi naqd pullar va jami naqdsiz pullar hajmining 2027-yilgacha bo'lgan davr uchun prognoz qiymatlarini olish maqsadida, mazkur tadqiqotda avtoregressiya – integrallashgan siljuvchi o'rtacha qiymat – ARIMA usuli qo'llanildi. Olingan prognoz ko'rsatkichlar MBRV ta'sirini tadqiq etish doirasidagi keyingi ssenariyli tahlil uchun asos sifatida xizmat qiladi.
